

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“MOLIYA-IQTISOD” FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

TIRKASHEV JALOLIDDIN KOBILJONOVICH

**“EVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARIDA DAVLAT QARZI
HOLATINING TAHLILI”**

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrası mudiri

«____»_____2014

Ilmiy rahbar:

dots.Tog‘aev B.

TOSHKENT 2014

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. YEVIROPA ITTIFOQI TIZIMI,TARKIBI VA DAVLAT QARZLARINING MAZMUNI HAMDA O'RNI.....	7
1.1. Yevropa ittifoqi tuzimi hamda unga a'zo davlatlar tasnifi	7
1.2. Davlat qarzi va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	10
I bob bo'yicha xulosalar.....	20
II bob. YEVIROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARI DAVLAT QARZINING HOZIRGI HOLATI.....	21
2.1. Yevropa ittifoqi mamlakatlari davlat qarzining tahlili.....	21
2.2. Qarz inqirozining yevropa mamlakatlariga ta'siri.....	28
2.3. Rivojlanan mamlakatlar bilan Yevropa ittifoqi davlatlari qarzlari tahlili	33
II bob bo'yicha xulosalar.....	61
III bob. YEVIROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARI DAVLAT QARZLARINI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	62
Xulosa.....	78
Foydalanilgan adabiyotlar.....	80

Kirish

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Yevropa iqtisodiy muammolarini hal qilish bilan ovora bo'lib turgan bir paytda butun dunyo yangi inqiroz sikliga tayyorlanishmoqda. Davlat qarz muammosi nafaqat Yevropa, balki ko'plab mamlakatlarni qiyin axvolga solib qo'ymoqda. Yevroittifoqning asosiy iqtisodi muvozanatli deb topiladigan mamlakatlari ham juda qiyin vaziyatga duchor bo'lmoqda.

Butun sayyora bo'yicha madaniyati, ijtimoiy qatlamlari va rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi mintaqa hisoblangan Yevropa ham ko'plab muammolar girdobiga g'arq bo'lgan. Bunday muammolardan biri bu davlat qarzi muammosidir. Hozirda nafaqat Yevropada balki butun dunyoda davlat qarzi oqibatida bankrot mamlakatlar ko'paymoqda. O'z iqtisodiyoti, budjeti va soliq sohalarida katta katta reformalar o'tkazishmoqda. Yevropa mamlakatlarini yaxlit tarkibda ushlab turuvchi pul birligi mavjudki, yevroning mustahkamligi butun Yevropaga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jumladan, Gretsiya tashqi qarzi YAIMning 140 foizidan oshib ketgan. Eng yomoni, bu qarz yiliga yana 20 foiz ko'paymoqda. Yaponiyaning qarzi YAIMning 226 foizidan, Italiyaniki 120 foizdan oshib ketgan. Yevropa Ittifoqining tashqi qarzi 16 trillion dollarga, aniqrog'i, yalpi ichki mahsulotning 108 foiziga teng bo'lmoqda. AQSHning tashqi davlat qarzi 2013 yil 30 iyun holatiga 16 trillion 893 milliard dollarga, YAIMning 101 foiziga, Buyuk Britaniyaniki 9 trillion 959 milliard 965 million dollar, YAIMning 396 foiziga, Fransiyaniki 6 trillion yoki YAIMning 188 foiziga, Irlandiyaniki 2 trillion 357 milliard, YAIMning 1060 foiziga, Lyuksemburniki 2 trillion 146 milliardga yoki YAIMning 3411 foiziga teng bo'lgan. ¹

¹ *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning,, Mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi.4-son. 18-yanvar2014-yil*

Jahon mamlakatlari tashqi qarzlari borasidagi yuqorida keltirilgan raqamlar, O'zbekistonning tashqi qarzi esa YAIMning 17 foizidan oshmayotgani eng katta yutug'imiz, istiqlool imoratining poydevori mustahkamligini isbotlab turibdi. Prezident Islom Karimov rahbarligida istiqloolning ilk qadamlaridayoq o'z yo'limizni aniq-ravshan belgilab olganimiz va eng og'ir damlarda ham tanlagan bu yo'limizdan qaytmaganimiz, sabr-bardosh bilan olg'a intilganimiz bois ham shunday ulug' g'alabalarga erishdik. O'z umrini o'tab bo'lgan mustabid, buyruqbozlik va rejali-taqsimot tizimidan qanchalik uzoqlashganimiz sari, milliy taraqqiyot modelimizning asosini tashkil etadigan tamoyil va normalarning nechog'li to'g'ri ekaniga ishonch shu qadar ortib bormoqda. Davlat qarzlarini qaytarish va milliy iqtisodiyot rivojini ta'minlash juda muhim hisoblanadi. Shu maqsadda Yevrokomissiya, Yevropa Markaziy banki, Xalqaro Valuta fondi va shu kabi ko'plab moliyaviy tashkilotlar o'z takliflarini bildirishmoqda. Qarz inqirozi tarixiga nazar tashlasak AQSHda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ko'plab mamlakatlar, iqtisodiy sohasi cho'kishiga turtki vazifasini bajarib berdi. Shu jumladan bu inqiroz qarz muammosini ham keltirib chiqardi. Inqiroz natijasida ko'plab davlatlar, shu jumladan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ham qiyin axvolga tushib qoldilar. Defolt xavfi ostida qolgan davlatlar soni ko'paydi. Malakaviy bitiruv ishining dolzarbligi ham shu masalalar bilan uzviy bog'liq.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi va vazifalari. Davlat qarzi muammosini hal qilishdan avval uning kelib chiqish sabablarini o'rganish lozim. Ko'pchili mamlakatlarda qarzning asosiy sababi qimmatli qog'ozlar va davlat zayomlari hisoblanadi. Ularning narxlari tushib davlatga katta miqdorda qarz yuklamasini keltirib chiqaradi. 1992-yilda tuzilgan shartnomaga binoan har bir Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar o'z qarzlarini va budjetini belgilb qo'yilgan darajadan oshirmasligi lozim. Bunga zid ko'rsatkich bo'lishi mumkin emas. Lekin Gretsiya, Irlandiya va Italiya hozirgi kunda eng qarzga botgan

mamlakatlar hisolanadi. Bu davlatlar aholi xarajatlari yuqori, lekin budjetni moliyalashtirish past darajada. Misol uchun Gretsiya, bu davlat o'z defolt holatini e'lon qilishga juda yaqin vaziyata kelib ulgurgan. Ketma ket berilgan moliyaviy yordamlar o'z ta'sirini sezilarsiz o'tkazmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Malakaviy ishining ahamiyati shundaki jahon teatri hisoblangan Yevropadagi rivojlangan mamlakatlar davlat qarzi muammosi hozirda hech bir jamiyatni e'tiborsiz qoldirayotgani yo'q. Yirik moliyaviy tashkilotlar va iqtisodiy reyting agentliklar berayotgan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki davlat qarzi qisqa muddatda vujudga kelishi mumkin. Bunday sabablarga, davlat boshqaruvidagi kamchiliklar, siyosiy partiyalar harakatlari va boshqa mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar kiradi. Butun Yevropa mamlakatlarini birlashtiruvchi yagona valuta borligi esa bir mamlakat muammosi to'g'ridan to'g'ri boshqasi bilan bog'liqliligini anglatadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Yevropa Ittifoqi bu juda katta mintaqa. Unga a'zo 28 davlatning har biri jahon miqyosida o'z o'rniga ega. Ushbu mamlakatlar davlat qarzlarini esa hozirgi kun bilan hisoblasak o'sish ko'rsatkichiga ega. Bu qarzlar darajasini o'rganishda ko'plab olim va iqtisodchilar jumladan keyns maktabi vakili Luka A. Richchi, nemis iqtisodchisi Garld Shnel, iqtisodchi Rubini, Jan Katremer, „Davlat qarzini bekor qilish“ qo'mitasi vakili Lej va boshqalar, moliyaviy tashkilotlar: Yevropa tiklanish va Taraqqiyot banki, Xalqaro Valuta fondi, Yevropa Markaziy banki va shunga o'xshash tashkilotlar tadqiqotlari, hamda turli mamlakatlar iqtisodchi olimlari, davlat arboblari, moliya vazirlari va hukumat rahbarlari turli fikrlarini bildirishgan.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi. Malakaviy bitiruv ishi dolzarb mavzu ya'ni davlat qarzi muammosi haqida yozilgan. Bunda katta e'tibor uning qay holda ekanligiga qaratilgan. Davlat qarzi hozirgi kunda Yevropa ittifoqida keskin oshmoqda va bundan iqtisodchilar havotirda. Davlatlar o'z qarzlarini

imkon qadar pasaytirishga urinmoqda. Bunda xar xil fondlar yordami, kredit paketlari va o'z xarajatlarini pasaytirish ko'zda tutilgan. Shu o'rinda davlat ishlab chiqarish kuchlarini imkon qadar kuchaytirish zarur. Qanchalik kam tannarxli mahsulotlar shunchalik raqobatbardosh hisoblanadi. Bu esa iqtisodni oyoqqa qo'yishga yordam beradi. Budget xarajatlarini faqat ustuvor tarmoqlarga yo'naltirish va davlat rivojlanishiga ko'mak berish lozim. Davlat qarzlarini yana qarz olish hisobiga emas, balki iqtisodiyotda kuchli reformalar o'tkazish bilan qisqartirish lozim.

Malakaviy bitiruv ishi tuzilishi va hajmi. Malakaviy bitiruv ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bu bo'limlar orqali malakaviy bitiruv ishi turli ma'lumotlar asosida yoritilgan va bayon qilingan.

I Bob. YEVROPA ITTIFOQI TIZIMI ,TARKIBI VA DAVLAT QARZLARINING MAZMUNI HAMDA O'RNI.

1.1.Yevropa ittifoqi tuzilishi hamda unga a'zo davlatlar.

Yevropa ittifoqi (YEI) — o'zida xalqaro tashkilot va federativ davlat xususiyatlarini mujassamlashtirgan davlatlararo uyushma. Dastlab Yevropa hamjamiyati ("Umumiy bozor") nomi bilan atalgan. YEI to'g'risidagi shartnoma 1992-yilda Maastricht shahrida (Niderlandiya) Yevropa hamjamiyatiga a'zo bo'lgan 12 davlat va hukumat boshliqlari imzo chekkan Yevropa mamlakatlarining siyosiy va valyuta-iqtisodiy ittifoqini vujudga keltirish to'g'risidagi bu shartnoma 1993- yil 1- noyabrdan kuchga kirgan.

YEI ning maqsadlari: Yevropa xalqlarining mustahkam ittifoqini vujudga keltirish, ichki chegaralari bo'lmagan makon yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro ta'sirni kuchaytirish yo'li bilan muvofiqlashtirilgan uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga yordam berish; iqtisodiy va valyuta ittifoqini tashkil qilish va yagona valyuta yaratish (bu maqsadga 2002 y. yanvarda asosan erishildi); birgalikda tashqi siyosat olib borish va xavfsizlik borasida siyosat yuritish, kelgusida esa birgalikda mudofaa siyosatini ham olib borish yo'li bilan xalqaro sohada o'ziga xos bir xillikni qaror toptirish; adliya va ichki ishlar sohasida hamkorlikni rivojlantirish; umumiy boylukni saqlab qolish va ko'paytirish. YEI organlari: Yevropa mashvarati, Yevropa parlamenti, Yevropa Ittifoqi Kengashi, Yevropa komissiyasi, Yevropa sudi. Tashkilotga 15 mamlakat (Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg , Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya, Shvetsiya) a'zo (2002 y. yanvar). Qarorgohi Strasbur shahrida (Fransiya). O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida YEI bilan hamkorlik alohida o'rin tutadi. Tashkilot TESIS dasturi doirasida O'zbekistonga texnikaviy yordam ko'rsatadi. 1999 y. 1 iyulda O'zbekiston bilan YEI o'rtasida

shariklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim ratifikatsiya qilindi. Bu bitim siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy aloqalar rivoji uchun imkoniyat tug'dirdi. Jumladan, tomonlar o'zaro savdoda bir-birlariga eng qulay sharoit yaratadilar, bir-birlariga tegishli tovarlarni o'z hududlari orqali erkin tranzit qilishni ta'minlaydilar.

Yevropa Ittifoqi -Yevropaning 28 davlatidan iborat siyosiy va iqtisodiy birlashmadir. Uning tarixi 1957 yilga, 6 Yevropa davlatlari orasida imzolangan Rim bitimi va undan so'ng paydo bo'lgan Yevropa Iqtisodiy Hamkorligiga borib taqaladi. Yevropa Ittifoqi 1992 yilda imzolangan Maastrixt shartnomasiga binoan tuzilgan va 15 davlatni o'z ichiga olgan. 2005 yilda Ittifoqning birinchi yirik kengayishi yuz berdi. Unda Ittifoqqa 10 ta yangi davlatlar qo'shildi. Ikki yildan so'ng ular soniga Bolgariya hamda Ruminiya davlatlari qo'shilib, hozirgi davrga qadar Yevropa Ittifoqi 28 davlatlardan iborat.

Yevropa ittifoqiga mamlakatlar yillar davomida quyidagicha a'zo bo'lib kirishgan:

1957-yil:  Belgiya,  Germaniya Federativ Respublikasi,  Fransiya,  Italiya,  Lyuksemburg,  Niderlandiya — 6 ta.

1973-yil:  Daniya,  Irlandiya,  Buyuk Britaniya — 9 ta.

1981-yil:  Gretsiya — 10 ta. 1986-yil:  Portugaliya,  Ispaniya — 12 ta.

1995-yil:  Avstriya,  Finlyandiya,  Shvetsiya 15ta.

2004-yil:  Kipr,  Chexiya,  Estoniya,  Mojariston,  Latviya,  Litva,  Malta,  Polsha,  Slovakiya,  Sloveniya — 25 ta.

2007-yil:  Bolgariya,  Ruminiya — 27 ta.

2013-yil:  Xorvatiya — 28 ta. Yevropa mintaqasida joylashmagan quyidagi hududlar ham Yevropa Hamjamiyati hududi hisoblanadi²: Azor orollari, Gvadelupa (Avliyo Martin va Sen-Bertelmi orollarining shimoliy qismi), Kanar

² „Yevropa tarixi“ milliy ensiklopediyasi 2013-yil London „Europa“

orollari, Madeyra, Martinika, Melilya, Reyunyon, Seuta, Fransuz Gvianasi. 1946-yil 19-sentabr kuni Buyuk Britaniyaning sobiq tashqi ishlar vaziri Winston Churchill Syurix universitetida so'zlagan nutqida AQShga o'xshagan „Yevropa Qo'shma Shtatlari“ tuzishni taklif etadi. 1949-yilda Yevropa Kengashi tashkil etiladi. Hozirga kelib, bu tashkilotning 46 ta a'zosi bor. 1957-yil: Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (YKPB) ga a'zo mamlakatlar Yevropa iqtisodiy hamjamiyati yoki „Umumiy bozor“ga asos soluvchi hujjatlarni imzoladilar.³ Bu hujjatlar 12 yil mobaynida bojxona to'siqlarini tugatish, umumiy soliqlarni o'rnatish va keyinchalik umuman yo'q qilish, ishchi kuchining erkin harakat qilishini ta'minlash, bir xil ijtimoiy kafolatlar o'rnatish va yagona ish haqi to'g'risida edi. 1959-yilda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati a'zolari tomonidan Yevropa parlamenti tashkil etildi. 1967-yilda uchta Yevropa hamjamiyati — Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati va atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati Yevropa Hamjamiyati bo'lib birlashadi.

1968-yil: Yevropa Hamjamiyati mamlakatlari o'rtasida barcha bojxona soliqlari bartaraf etildi. 1979-yilda Yevropa parlamentiga ilk bora to'g'ridan-to'g'ri saylovlar bo'lib o'tdi. 1985-yili Grenlandiya o'z-o'zini mustaqil boshqarish huquqini qo'lga kiritdi va referendum natijasida Yevropa Ittifoqidan ajralib chiqdi.

1986-yilning fevralida Lyuksemburgda yagona Yevropa to'g'risidagi qonun (Single European Act) imzolandi. 1990-yil: Germaniya Demokratik Respublikasi GFR bilan birlashganligi bois uning hududi ham Ittifoq hududiga kirdi.

1992-yil: Yevropa Hamjamiyatining Maastrixt shahrida (Niderlandiya) yagona Yevropani yaratishni ko'zda tutuvchi Maastrixt bitimlarini imzoladilar. Bu bitimlarda uch guruh shartnomalar — yagona Yevropa valyutasini joriy

³ „Rim protokollari“ shartnomasi 1957-yil

etish, Yevropa siyosiy Ittifoqini shakllantirish va Yevropa komissiyasini tasdiqlash ko'zda tutildi.

1999-yil dekabr: Helsinkida (Finlyandiya) 15 ta a'zo mamlakatlar rahbarlari inqirozli va tahlikali joylarda tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun o'z Yevropa qurolli kuchlarini yaratish haqida qaror qabul qildi.

2002-yil 1-yanvar: Yagona Yevropa pul birligi — yevro muomalaga kiritildi. Buyuk Britaniya va Daniyadan tashqari qolgan barcha a'zolar o'zlarining milliy valyutalaridan voz kehdilar.

1.2. Davlat qarzi tushunchasi va iqtisodiyotdagi o'rni.

Davlat qarzi — davlatning aholi, firma, tashkilot, banklar, xorijiy moliya-kredit muassasalari oldidagi qarz majburiyatlari. Davlat o'z daromadlari bilan harajatlarini qoplay olmay qolganda byudjet taqchilligi paydo bo'ladi va u qarz ko'tarish yo'li bilan qoplanadi. Davlat qarzini turli qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar, zayomlar chiqarib sotish, moliya muassasasi (bank)dan ssuda olish va boshqa usullar bilan oladi.

Davlat qarzining to'lov davriga ko'ra:

a) qisqa muddatli

b) uzoq muddatli,

tarkibiga ko'ra:

a) ichki qarz (davlat mamlakatning o'zidagi iqtisodiy subyektlardan qarzdor bo'ladi)

b) tashqi qarz (xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqalardan qarzdorlik) kabi turlari bor.

Ichki qarz va uning foizlari milliy pulda, tashqi qarz va uning foizlari esa erkin almashtiriladigan valyutada to'lanadi. Davlat qarzining darajasi, ya'ni qarz

yuki qarz va uning foiz summasi yig'indisini davlat byudjeti summasiga nisbati bilan o'lchanadi, ya'ni

$$D.Q.D.=(D.Q + S(\%))/D.B.S.$$

bunda: D.Q.B- davlat qarz darajasi, D.Q-davlat qarzi, S(%)-foiz summasi, D.B.S-davlat budjeti summasi.

To'lov majburiyati byudjetning qancha qismiga teng ekanligi bilan belgilanadi. Davlat qarzining haddan tashqari ortib ketishi iqtisodiyotni izdan chiqaradi, xalq turmush darajasini pasaytiradi (chunki qarzni to'lash uchun zarur pul byudjetda soliklarni oshirish orqali to'planadi), mamlakatdagi iqtisodiy faollikni susaytiradi. Tashqi qarzning ko'payib ketishi milliy mustaqillikka tahdid soladi, undan qutulishi uchun milliy iqtisodiyotni yuksaltirishga ketadigan investitsiyalarni qisqartirish va hatto milliy boylikning bir qismini xorijga sotishga ham to'g'ri keladi. Vaqtida to'lanmagan tashqi qarzga qo'shimcha foiz to'lanadi, undiriladigan foiz qarzga qo'shilib, uning miqdori yanada oshadi.

Davlat qarzining bo'lishi uni boshqarishni taqozo etadi, ya'ni qarzni olish va to'lash bilan bog'liq muayyan chora tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Qarz va uning foizlarini to'lash uchun byudjetdan pul ajratish Davlat qarziga xizmat qilish deyiladi. Davlat qarzini to'lashdagi shartsharoitlarning o'zgarishi Davlat qarzining restrukturizatsiyasi deyiladi. Restrukturizatsiya yuz berganda qarz haqining o'zgarishi konversiya deyiladi. Qarz to'lash muddati cho'zilganda Davlat qarzi prolongatsiyasi yuz beradi. Qarzning bir turi boshqasiga aylanganda, qisqa muddatli qarz uzoq muddatli qarzga aylanadi va Davlat qarzining konsolidatsiyasi yuz beradi. Davlat qarziga o'rin bo'lmasligi uchun davlat harajatlari davlat daromadlari darajasida bo'lishi lozim. Bunda taqchillikka yo'l berilmaydi yoki minimal darajaga keltiriladi.

Yevropadagi eng kambag'al 5 mamlakat haqida gapirganda Latviyaning bu ro'yxatga tushib qolishini hech kim kutmagan edi. Bu kutilmagan antiqa ko'rsatkichdir. Albaniya haqida esa gapirmasa ham bo'ladi, ushbu mamlakatda velosiped haqiqiy boylik hisoblanadi. Umumiy ro'yxatga nazar tashlasak Yevropada shunday kambag'al mamlakatlar borligini bilib hayron qolish mumkin.⁴ 17- oktabrda qashshoqlikdan qutulish bo'yicha xalqaro bayram nishonlanadi. Qora continent va Sharq mamlakatlari haqida gapirmay o'zini-o'zi boqa oladigan Yevropa haqida gap ketmoqdaki, u yerda ham kambag'allik muammosi zaruriy choralardan biriga aylangan. Ruminiya-Sobiq Sovetlar hokimiyati iqtisodiy rivojlanishi uchun katta yordam qilgan o'tmishdagi sotsialistik mamlakat. 80- yillar boshida neftning narxi tushishi sababli bu mamlakatda katta davlat qarzi hosil bo'ldi. O'sha paytda mamlakat prezidenti bo'lgan Nikolay Chausheski davlat oldida turgan muammolarni juda yaxshi tushunar edi. U iqtisodiy modelni o'zgartirishga qaratilgan katta reformalar qabul qildi. Bunda u ijtimoiy dasturlarni qo'llab quvvatlashni davom ettirdi. Lekin Chausheski davlat qarzini to'laganda, nomalum snayperlar tinch namoyishchilarni o'qqa tutishdi. Nikolay va uning oilasini qo'lga olib, keyinchalik „qonxo'r diktator“ haqidagi afsonani tarqatdilar. Mamlakat „demokratlashish“ ga kirishdi va hozirgi kunda ulkan „baxtli“ davlat qarzi botqog'iga kirib qolgan. Albaniya-ko'pdan buyon bu mamlakat iqtisodiy muammolarni yecha olmaydi. Savodxonlik darajasi juda past. Ish ta'minoti va kelajakning yo'qligi axolini chet ellarga borib ishlab, kun o'tkazishga majbur qiladi. Bundan tashqari mamlakat AQSH va NATO tayanchi ostida Kosovo tarixiy serb hududiga qo'shilishi uchun yo'naltirilgan siyosatni olib bormoqda. Albanlar qadimiy xristiyan muqaddas joylarini buzishmoqda, tinch serb axolisini o'ldirishmoqda. Mamlakatdagi bunday xolat unga nisbatan xalqaro ishonchni yo'qotadi va iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi. amlakatdagi bunday xolat unga nisbatan xalqaro ishonchni yo'qotadi va iqtisodiy

⁴ „Nyu-York Times“ jurnali Nyu-York 2013-yil 5-son

rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Latviya-qachonlardir Sovetlar davrida boy mamlakat, hozirgi kunda bechora hol Yevropasimon davlatchaga aylangan. Gap shundaki, 90-yillar Latviya (barcha Boltiq bo'yi mamlakatlari singari) Sovetlar davridan qolgan boyliklarni sotish bilan mashg'ul bo'ldi. Yevropa ittifoqi tarkibiga kiringach mamlakatning eksport zaxiralari tugagan edi, shartnomaga asosan esa mamlakat baliq va shakarni yetkazib berishni ya'ni o'zining an'anaviy eksport turini to'xtatishi shart. Endi esa mamlakatda katta davlat qarzi ko'rsatkichi va mehnat emigratsiyasining oqimi kutilmoqda. Gretsiya-zamonaviy ellada. Afsuski bu mamlakat ham hayot darajasining yuqoriligi bilan bizni quvontirmaydi. Yevropa ittifoqiga kiringach ko'pgina chekinishlarga rozi bo'ldi. Misol uchun Yevropa foydasi uchun o'z milliy valutasini draxmadan vos kechdi. Hozirgi kunda Gretsiyaning qarzi 15 mlrd yevrodan ziyod summani tashkil etadi. Uni to'lash uchun mamlakat ko'pgina davlat dasturlaridan kechishiga to'g'ri keladi. Ukraina-Ukrainani ham eng kambag'al davlatlar qatoriga kirib qolganini tan olish kerak. Bu regionning asosiy muammosi aholining yuqori darajada tarqoqligi. Sharqiy Ukraina – Molorossiya – o'zini xaqqoniy ravishda Rossiyaning bir qismi deb hisoblaydi va bor kuchi bilan tarixiy vataniga qaytish ishtiyoqida. Shu vaqtning o'zida g'arbiy qism – Galitsiya Ukrainani aloxida, mustaqil mamlakat deb jar solmoqda. Mamlakatda moliyaviy korruptsiya, poraxo'rlik, o'g'irlik davlat faoliyatining barcha tizimlariga singib ketgan. Bu esa iqtisodda fojialiyo'qotishlarni keltirib chiqaradi.

Turli mamlakatlarning davlat qarzi majburiyatlari umidliligiga baxo berish borasida Xalqaro valuta fondi ma'lumotlari bizga juda ham aniq emas deb tuyulmoqda, birinchidan, XVF ning xalqaro rezervlari bo'yicha ma'lumotlar bazasi hamma rezervlarni to'liq egallay olmaydi, berilgan ma'lumotlarga asoslanib, ular orqali yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tuzilgan, bu yerda rezervlarning „joylashtirilmagan“ unallocated deb atalgan anchagina katta

hajmlar borki, u joylashtirilgan hajmlarning uchdan bir qismini tashkil etadi. Ikkinchidan, rezerv valutalarida joylashtirilgan aktivlarning davlat qarzini taqdim qiluvchilari hammasi emas.

Rivojlangan mamlakatlarning qarz majburiyatlarini bostirish bahosi, chet ellik ushlab turuvchilar(aktivlarni) xar xil mamlakatlar bo'yicha aynan qarz statistikasi bo'yicha tahlil qilish mumkin. Ushbu analiz chet el investorlari va avvalo, davlat institutlarining, markaziy banklarning, suveren fondlarning va o'sib kelayotgan pul qo'yishlari yana kamroq qarz uskunalarining ta'minlanishi qanchalik qanchalik isbotlanganligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq yuqorida qarz va YaIM ning nisbati, axoli jon boshiga rezerv va qarzlarning, shu bilan birga oltin zaxiralarining nisbati sifatida rivojlangan davlatlarning davlat qarzi nisbiy parametrlari ko'rib chiqilgan. Xozirgi kunda bu barcha nisbatlar juda izdan chiqqan (balansdan chiqib ketgan) va qariyb hamma ko'rib chiqilgan iqtisodlar uchun real aktivlar bilan ta'minlanishning juda kichik xolatini namoyish etmoqda, yoki bu mamuriy rezervlar, oltin yoki mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lishidan qat'iy nazar. Shu bilan bir vaqtda xalqaro rezervlar bozorida bu uskunalarining alternativsizligi sababli rivojlangan mamlakatlarning qarz majburiyatlariga chet el tomonidan pul qo'yishlari doimo o'sadi. Bu bilan bog'liq xolda bu majburiyatlarni emitatsiya qiluvchi davlatlar o'z vazifasini bajara oladimi degan savol tug'uladiki ular yana ham ko'proq moliyaviy piramidani eslatadi, ular orqali hisob kitob qilganda yoki qarzni va to'lovni taqdim etishda chet el investorlari rad javob bilan to'qnash keladilarki bu 1971-yilda AQSHning oltin bilan qarzlarni to'lashni rad etganiga o'xshab. Bu muammoni tahlil qilish uchun rivojlangan davlatlarning rezervlari bilan hamma qarzni emas hattoki sof qarzlarni ham emas, faqatgina chet el investorlari egalik qilayotgan qismini, ya'ni ularning asosiysi esa davlat institutlari hisoblanadi. Chet el pul mablag'larini ushlab turgan mamlakatlardan yagonasi o'z rezervlari

davlat qarzlaridan yuqori bo'lgan yirik rivojlangan mamlakat bu Yaponiya. Yaponiyada chet el investorlari oltin valuta zaxiralari davlat qarzi hajmidan taxminan ikki barobar ko'p. qolgan mamlakatlarda investolar uchun ahvol juda noqulay, chunki qarzlar miqdori rezerv hajmidan ancha ko'p. Odatiy peshqadam bo'lib, qarzlarni qoplash bo'yicha kuchsiz hisoblanan mamlakat bu AQSH. Chet el investorlari oldida 4.5 trln dollardan ortiq qarzi bo'la turib 2013- yilda davlat rezervi bor yo'g'I 133mlrd dollarni tashkil qilib, bu chet el investorlari oldidagi qarzdan 35 marta kam degani.

Chet el investorlari oldidagi holat Yevropada anchagina durustroq. Lekin davlat moliyasi holatiga ijobiy baho berib bo'lmaydi. Ko'pchilik yirik Yevropa mamlakatlarida chet elliklar oldidagi qarzдорlik milliy rezervga nisbatan 5 -7 barobar ko'p. bizning qarashimizcha bu holat anchagina tashvishli va yaqin kelajakda dunyo qarzining jadallashib o'sish suratiga olib keladi. Bu rivojlangan mamlakatlar tomonidan hozirgi kunda davlat qarz majburiyatlarini so'ndirish uchun qo'yilgan mablag'larni yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Bir qator Yevropa mamlakatlarida oxirgi yillarda, asosan inqiroz va qarz muammolarini tezlashuvi rivojlangan mamlakatlarda davlat qarzi masalasi, qarz nisbiy ko'rsatkichlarining jadal o'sishi natijasida yalpi qarz va YaIM hajmini solishtirish natijasida (ko'pgina mamlakatlarda 100% nuqtadan oshib ketdi yoki bu nuqtaga yaqinlashdi) aktual zaruriy kundalik masalaga aylanib qoldi. Bu an'ana yetarlicha xavotirli hisoblanadi, lekin yana ham rivojlangan mamlakatlarning davlat moliyasiga nisbatan qarz yuklamasi holatig to'liqroq baho berish uchun qarz hajmiga bog'liq bo'lgan ayrim boshqa ko'rsatkichlarni tahlil qilib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi. 2013-yil 1-noyabrda Yevropa Ittifoqi haqida shartnomaning kuchga kirganligiga 20 yil to'ldi(yoki noma'muriy –Mastrixt shartnomasi). ⁵ Shaxsiy yubileyini Yevropa faqatgina iqtisodiyot retsessiya holatiga emas, hatto ularning ko'pchiligi Mastrix asos

⁵ „Економист“ moliyaviy-iqtisodiy jurnali. Moskva .2013-yil dekabr soni

solgan vazifalarni bajarmaslik bilan kutib oldi. Shunday qilib 2013-yilning ikkinchi kvartali natijalariga ko'ra umumiy 28 Yevropa ittifoqi mamlakatlarining davlat qarzi 86.8% (YaIM ga nisbatan), Yevrohududning 17 mamlakatida davlat qarzi 93.4% (YaIMga nisbatan) ni ko'rsatdi, bu esa Maastricht shartnomasi va stabilitektiga asosan o'rnatilgan qoidalarga binoan (limit va suveren qarzi YaIM o'lchovidan 60% idan oshmasligi shart) ⁶ qo'yilgan shartlarni buzib nisbatan ko'tarilib ketadi.

2013-yil 5- noyabrda 2015-yilgacha bo'lgan bir yolla ham Yevrohudud ham Yevropa Ittifoqi mamlakatlari iqtisodiy o'sishini tahlil qilish turib valuta ishlari va iqtisodiy bo'yicha Yevrokomissiya raisi o'rinbosari Olli Ren aytib o'tdi. Yevropa iqtisodida keskin burilish punktining yana ham ko'proq belgilari kuzatilmoqda. Budget konsolidatsiyasi va tizim reformalari (Yevropada qo'llanilgan) o'sishning yangi asosini yaratdilar. Shu bilan bir vaqtda g'alabani e'lon qilish uchun hali juda erta; ishsizlik haligacha yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada qolmoqda.

Yevrokomissiya ma'lumotlariga asosan 2013- yilda YaIM nol qiymatda o'zgarmadi. Prognoziga ko'ra 2015-yilda esa Yevropa iqtisodida o'sish tempi 1.9 % gacha kuchayadi. Yevrohududda esa 2013-yilda 0.4% region YaIM ning pasayishi, 2014-yilda 1.1% YaIM o'sishi, 2015-yilda YaIM 1.7% gacha o'sish tempining kuchayishi habar qilinadi. Bunda oldingi Yevrokomissiya ma'lumotlariga nisbatan (o'tayotgan yilda 0.1% ga Yevropa ittifoqi YaIM ning qisqarishi tahmin qilingan).

Yevropa ittifoqi YaIM o'sishi 2013-yilda 0.1% ga yaxshilangan, lekin Yevrohudud YaIM o'sish tempini 2014-yilda bahosi aksincha pasaygan, oldingi prognozga qaraganda 0.1%ga, Yevrokomissiya prognozi o'zgartirishsiz qoldi. Yevrokomissiya fikri bo'yicha 2013- yilning ikkinchi kvartalida 0.3% ga

⁶ „ Maastricht shartnomasi“ 1992-yil

Yevrohudud YaIM ning o'sishi region iqtisodidagi tizimiy o'zgarishlarga emas balki qulay ob havo sharoiti va mavsum faktorining ijobiy ta'siriga bog'liq. Yevrokomissiya ekspertlari aytishlaricha, 2013- yil ikkinchi yarmida YaIM regionda o'sish kamtar ko'rinishda qoldi. Yevropa Ittifoqi turli davlatlarda real sektorni kreditlash sharoitida farqlarning ortib borishi va hajmlarning pasayishi o'z ta'sirini ko'rsatadi (bu holatni belgilash uchun yevropa ekspertlari hatto mahsus atama „moliyaviy fragmentatsiya“ni o'ylab topdilar). Tavakkalchilikning ko'tarilishi va noma'lumlik yangi ish o'rinlari yaratish uchun yevropani stabillashtirishiga yomon ta'sir ko'rsatishida davom etadi.

Djorj Soros „ toki hokimiyat mavjud siyosiy kursda ish yuritar ekan, ular zulmatli saxnadan Yevropada uzoq davom etadigan iqtisodiy tushkunlikdan qochib qutulolmaydilar va buning natijasida Yevrohududning siyosiy yakdilligiga tarqalib ketishi xavfi tug'iladi" ⁷. Uning mulohazasiga ko'ra yevroni qutqarish uchun inqirozdan chiqishning tezkor choralari va uzoq muddatli tizimiy o'zgarishlar o'tkazish zarur. Bundan tashqari Soros Yevropa ittifoqi iqtisodiy integratsiya qilishni yo'lga qo'yish va davom etish kerak deb tavsiya beradi. Sorosning fikricha⁸ Yevropa fondi bazasida moliyaviy stabillikda to'laqonli yevropa moliya vazirligini shakllantirish bo'yicha a'zo davlatlar orasida kelishish shartnomasi tuzish zarur, shundan keyin Yevropa ittifoqi qo'mitasi agar to'lay olmaslik xavfi tug'ilish holatida vazirlikning agentlik vakolatini Yevropa banki komissiyasiga o'tkazishi mumkinki unda bank moliyaviy javobgarlikdan xolos bo'ladi. Soros bu choralarni faqat yevropa ittifoqi rivojlanishida „ jadallashuvni (strategiyani) “ qayta ko'rib chiqqandagina amalga oshirish mumkin deb tan oladi. U bunday vazirlik tizimiga ko'pgina mamlakatlar, birinchi navbatda Germaniya qarshi chiqadi, chunki ko'pgina davlatlar hukumati yevroni inkor etish yoki foydalanishda o'z shaxsiy qarorlarini qabul qila olishlariga ishonib kelmoqdalar. Lekin, Sorosning

⁷ „Економист“ jurnali „Yevroning kelajagi bormi?“ maqolasi. 2013yil dekabr soni.

⁸ „Економист“ jurnali „Yevroning kelajagi bormi?“ maqolasi. 2013yil dekabr soni

fikricha Yevropa ittifoqining tarqalishi moliyaviy tizimning qulashiga olib keladi, shuning uchun ham „Yangi buyuk depressiya “ dan qochib qutulishning „yagona yo’li” yevropa moliya vazirligini shakllantirishdir.

„Economist” da boshqacharoq yondashuv ko’zda tutilgan: jurnal mutaxassislarining fikricha „ federallashtirishning yengillashtirilgan versiyasi” yevroning sinishiga nisbatan ikki yomonninh yaxshisi bo’lishi mumkin. Cheklangan federallashuv , amaliyotda yaratish og’ir ,birinchi navbatda cheklangan budjet – soliq integratsiyasiga tayanishi shart. Juda katta davlat qarziga ega davlatlar o’z iqtisodiy holatini va yevro kursini stabillashtirishlari uchun aniq bir mamlakatning iqtisodiy ahvoli bilan bog’liq bo’lmagan, „xavfsiz” aktivlarga banklar uchun , pul vositalariga esa davlatlar uchun yo’l qo’yilishi shart. Bu maqsadga aniq bir vaqt ichida , aniq bir qarz majburiyatlar hajmini birlashtiradigan yevroobligatsiyalarning maromli variantini yaratish hisobidan erishish mumkin. Nemis iqtisodchisi , GFR mikroiqtisodiy rivojlanish bo’yicha baholash ekspert maslahat guruhining a’zosi Peter Bofinger va „Redifayn” xalqaro analitik markaz mutahasisi Soni Kapur qarz majburiyatlari 60%(YaIM ga nisbatan) bo’lgan barcha davlatlarni birlashtirishni taklif qiladi. Yevropa ittifoqi trqatilishi yangi kirgan mamlakatlar tomonidan yangi davlat obligatsiyalarini chiqarish o’rniga „ hamma Germaniyadan boshlab(davlat qarzi 81%YaIM) Italiyagacha (120%) toki davlat qarzi 60% YaIM ga tushmaguncha o’zaro yagona birgalikda obligatsiyalar chiqarishadi. Bunday obligatsiyalarning umumiy hajmi 2.3mlrd yevroga yaqin bo’lgan yangi bozori keladigan 25 yil ichida o’zini qoplaydi. Xar bir mamlakat obligatsiyalarga to’lovni amalga oshirish uchun aniq bir soliq turi bo’yicha (masalan QQS) qo’shimcha soliq yig’imlarini ko’chirishga o’zi uchun qo’shimcha majburiyat oladi”.⁹ Baribir ham hozirgi paytdagi GFR kansleri Angela Merkel xar qanday birgalikda chiqarilayotgan obligatsiyalar fikriga qarshi chiqishini davom etmoqda.

⁹ „ Економист” jurnali „Turlicha qarashlar” maqolasi.2013yil 3-oktabr.

Shu bilan birga Germaniya kansleri Angela Merkel va Fransiyaning sobiq prezidenti Nikola Sarkazi bir necha bor yevroning mavjudligi butun Yevropa ittifoqi yashash imkoniyatiga bog'liq deb, hech qachon yevrohududning parchalanishiga yo'l qo'ymaymiz deb jar solishmoqda. 2011-yil sentabrda Yevroittifoq komissari Xoakin Almuniya kuchsiz iqtisodga ega bo'lgan mamlakatlarni Yevrohududdan chiqarish bilan muammolarni hal qilib bo'lmaydi deb yuqoridagilarning fikriga qo'shildi. Bundan tashqari YMB sobiq prezidenti Jan-Klod-Trishe ham Germaniyaning nemis markasiga qaytish imkoniyatini rad qildi.

Yevropa ittifoqi tarkibiga kirmasa ham Islandiya to'liq o'z iqtisodini uzoq qarziy inqirozdan keyin to'liq tiklay olgan Yevropadagi alohida mamlakatlarning biriga kiradi. Islandiya hukumati defolt e'lon qildi va valutani yirik devolvatsiyasini o'tkazdi, bu bilan 50% ga ishchi kuchiga ketadigan xarajatlarni amaliyotda qisqartirdi, bu esa o'z navbatida mamlakat eksporti sohasida raqobatga katta imkoniyatlar yaratdi. Li Garrisning fikricha siyosiy nuqtai nazardan ishchi kuchiga bo'lgan xarajatlar razmerini qisqartirishni, valuta kursini qiymati o'zgarib turgan vaqtida devolvatsiya qilishni amalga oshirish oson, reformatorning siyosiy karerasining tugallanishiga olib keladigan oylik ish xaqqini kamaytirish ovoza qilish hisobida emas. Shvetsiyada raqobatda qulay imkoniyatlarga ega bo'lish valuta kursining o'zgarib turishi bilan ta'minlangan edi, uzoq muddatda esa – tizimdagi reformalar yoki bozordagi meyorlashuvni omadli qo'llash orqali erishildi. Bundan tashqari davlat sektori tomonidan zayom vositalarining minimal darajada foydalanish, soliq reformasi va aholi bandligi uchun turli imtiyozlarni kiritish iqtisodiy o'sishni ta'minladi.

Yevrohududdan chiqish yoki uning tarqalishi nafaqat iqtisodiy balki juda muhim siyosiy qaror ekanligini hisobga olish zarurki uning oqibatlari juda murakkab, agar Berlin kerakli vositalarni taklif qilib, o'yin qoidasini qolgan mamlakatlarga majburlasa, unda Germaniya tomonidan norozilik kuchayadi

(yoki milliy kayfiyatlarning o'sishi) va bu Yevropa ittifoqidan chiqib Buyuk Britaniyaga o'tmoqchi bo'lganlar tarafdorlarining tutgan yo'lini kuchaytiradiki, bu faqatgina mamlakat aholisiga tegmay Yevropadagi barcha liberal iqtisodiy siyosat tarafdorlariga ham salbiy ta'sir o'tkazadi.

I bob bo'yicha xulosalar

Haqiqatdan Yevropa ittifoqi rivojlangan mamlakatlar yig'indisidan iborat. Unda dunyoning eng dong'i ketgan mamlakatlari jumladan, Buyuk Britaniya , Germaniya, Italiya va shu kabi mamlakatlar jam bo'lgan. 1992-yildan rasman „Mastrixt“ shartnomasi imzolandi. Yevropa birlashuvi avvalo Fransiya va Germaniya manfaatlariga taalluqli bo'lgan. Chunki Fransiya tarixan bir necha marta Prussiya va Germaniya tomonidan tajovuzga uchrab kelgan. 1945 – yildan keyingi AQSH va Angliyaning G'arbiy Germaniya iqtisodiyotini tiklanishi va armiyasining jonlanishi Fransiyaning xavotirlanishiga sabab bo'lar edi. Chunki Germaniyaning notinch harakatlari hamisha iqtisodiy tiklanishdan keyin boshlanar edi. Bevosita Fransiya uchun 1949 – yilda GFR statusi belgilanishi bilan axvol ancha og'irlashadi va u ham AQSHga yonbosishi talab etilar edi. Chunki AQSHning Germaniyani tiklanishi to'g'risidagi talablari Fransiyaning zonasiga taalluqli bo'lib, ayniqsa bu Rur va Saarga bevosita bog'liq edi. Biroq bu o'zgarishlar G'arbiy Germaniya tiklanishi, uning tomonidan kelajakda xavf tug'ilmasligi kafolatligi emas edi. Birlashuv faoliyatini sharoit tug'ilishi bilan kengaytirish juda muhim ahamiyat kasb etardi. Yevropa birlashmasiga asos solgan, buning dastur va rejalarini tuzgan, uning asosiy tamoyillarini belgilashda faollik qilib, umuman bularni birlamchi shakllarini amalga oshirishda katta ishlarni bajargan fransuz Shuman va Monnelardir. Katta iqtisodiy-siyosiy bilim va tajribaga ega bo'lgan Monne va bu ishlarda tashabbuskorlik hamda boshliq bo'lgan Shumanlar axvol va vazifalarni yaxshi bilan xolda ish tutishgan.

II Bob. YEVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARI DAVLAT QARZINING HOZIRGI HOLATI

2.1. Yevropa ittifoqi mamlakatlari davlat qarzining tahlili

Yevropa ittifoqi a'zo mamlakatlarining milliy qarzi 11 trln yevrodan oshib ketayapti va o'sishda davom etmoqda .¹⁰ 22-iyul kuni 2013-yil Yevropa ittifoqi markaziy statistika byurosi (Yevrostat) 2013- yilning 1-kvartali uchun Yevropa ittifoqi a'zo mamlakatlarining milliy qarzi holati haqida ma'lumotlarni nashr qildi. 2013- yil 1- kvartal ko'rsatkichlari 2012-yil 1-va 4- kvartal ma'lumotlariga taqqoslanib berildi. Suveren qarzlarning inqirozi umumiy Yevropa va Yevropa ittifoqi valutası –yevroning og'ir holati hisoblanadi. 2012-yil Yevropa ittifoqida o'tkazilgan budjet harajatlari ustidan qattiq nazorat siyosati va budjet harajatlarining masshtabli qisqartirilishiga qaramay berilgan ma'lumotlar shuni ta'kidlaydiki , sekin templar bilan bo'lsa ham Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarning milliy qarzi o'sishda davom etmoqda . bunda salbiy ahvolga kutilganidek, aynan Yevropa ittifoqidagi Yevrohudud tushib qoldi. 2013-yil birinchi kvartaldan keyin umumiy hisoblaganda Yevropa ittifoqi davlatlari o'z kreditorlariga 1111990000000 yevro qarzdor.

1- Jadval ¹¹

Yevropa ittifoqidagi mamlakatlarning davlat qarzi:(Yevrohudud 17 mamlakat) mln yevroda

Muddat oralig'i	Umumiy qarz	YaIM ga nisbatan % da
2012-yil 1-chorak	8,344353	88,2
2012-yil 4-chorak	8,600626	90,6
2013-yil 1-chorak	8,750131	92,2

¹⁰ „Yevrostat“ yevropa ittifoqi statistika boshqarmasi ma'lumotlari www.eurostat.com

¹¹ „Yevrostat“ yevropa ittifoqi statistika boshqarmasi ma'lumotlari www.eurostat.com

Yevropa ittifoqidagi mamlakatlarning davlat qarzi:(Yevropa ittifoqi 28mamlakat) mln yevroda

Muddat oralig'i	Umumiy qarz	YaIM ga nisbatan % da
2012-yil 1-chorak	10,607211	83,3
2012-yil 4-chorak	11,010515	85,2
2013-yil 1-chorak	11,111,990	85,9

2013-yil birinchi chorakda Yevropa ittifoqi mamlakatlarining YaIM ga nisbatan milliy qarz miqdoridagi eng yuqori ko'rsatkichlarni Gretsiya(160.5%) , Italiya (130.3%), Portugaliya (127.2%) va Irlandiya (125.5%) ko'rsatdilar. Eng past ko'rsatkichlar Estoniya (10.00%),Bolgariya (18.00%) va Lyuksemburg(22.90%) mamlakatlariga tegishli. 2012-yil 4-choragiga nisbatan 2013-yil 1-choragida Yevropa ittifoqining 21 a'zo mamlakatida milliy qarzning o'sishi belgilanadi va qolgan 6 tasida qisqaradi. 2012-yil 1-choragi bilan 2013-yil 1-kvartali nisbatida davlatlarning YaIM ga nisbatan foizga hisoblagandfa Yevropa ittifoqi ichida milliy qarzning eng katta o'sish ko'rsatkichini Gretsiya(+24.1%) , Irlandiya(+18.3%) ,Ispaniya(+15.2%) , Portugaliya(+14.9%),Kipr(+12.6%) davlatlari namoyish etdilar. Davlat qarzining ma'lum muddatda eng baland qisqarish ko'rsatkichi Latviya (-5.1%), Litva(-1.9%) va Daniya(-0.2%) davlatlariga tegishli.

2005-yil birinchi inqiroz to'liqlaridan ancha oldin AQSH va NATO harbiy kuchlarining global antiteroristik operatsiyalarining qizg'in pallasida RAND korporatsiyasi- Oq uy ma'muriy analitik markazi Amerika siyosatida yorqin iz qoldirgan milliy xavfsizlik sobiq vazirlari va yordamchilari ishtirokida ekspress-brifing o'tkazildi. Taklif qilinganlar orasida Robert Maknamara , Brent

¹² „Yevrostat“ yevropa ittifoqi statistika boshqarmasi ma'lumotlari www.eurostat.com

Skoukroft, Frank Korluchchilar bor edi. Birgina masala muzokaraga qo'yildi: AQSH milliy xavfsizligiga uzoq muddatli qanaqa faktorlar bo'lishi haqiqatga yaqinroq bo'ladi?

- Bunday faktorlar : ommaviy zaxarlanish qurollarining tez yoyilishi, tez suratlar bilan o'sayotgan AQSHning davlat qarzi, milliy xavfsizlik borasida diplomatiyaning yetishmovchiligi va ilg'or xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashuvchi Amerikaning begonalashuvi bo'ldi. Xalqaro terrorizm va uning faolligi asosiy izdan chiqaruvchi factor emasligi alohida ta'kidlab o'tildi va bu nutq Amerika askarlari xalqaro terrorizm bilan kurashayotgan Iroq va Afg'oniston kompaniyasining qizg'in pallasida eshittirildi.

Yuqorida keltirilgan xavflardan ikkinchisi diqqatni alohida o'ziga jalb qiladi- o'sib borayotgan Amerika qarzi. Agar birinchi xavfga qarshi ananaviy Vashington usullari bilan kurashish mumkin bo'lsa,tezkor va zaruriy xarakatlarni ko'rish(AQSH armiyasi strategiyasi hujjatlari so'zlari bilan aytganda) yo'li bilan-yadro quroliga potensial ega bo'lgan , yadro infratuzimiga raketa-bomba zarbasi bilan , ikkinchi masalani yechish esa ancha og'ir ekanligi sezilmoqda. Bu yerda qurol bilan ish ko'rib bo'lmaydi. Kuch emas aql zarur. Lekin keying voqealar ko'rsatishicha , hatto shunday og'ir vaqtda ham yechimni toppish mumkin. Bu xavfning ildizlari moliyaviy iqtisodiy soxada yotadi,shundan kelib chiqib yechimni ham shu sohadan qidirish lozim. Kelayotgan 2-3 yil analitik markazlar murakkab strategik moliyaviy operatsiyalarni rejalashtirish bilan mashg'ul edilar, ularning asosiy maqsadi AQSH davlat qarzini yo'q qilishga qaratilgan edi deb tahlil qilish mumkin. 2007- yildan boshlab dunyo iqtisodi vaziyati o'sib borayotgan milliy iqtisodiy inqiroz harakteri tusini olib , haqiqatda juda murakkablashdi. Bugun bu narsa ochiq oydin bo'lib qoldiki, bu voqealarning ildizi AQSHda yotar edi-aynan Amerika banklari birinchi inqiroz to'lqining tashabbuskorlari bo'lishdi. Aldangan jamiyat bosimi ostida AQSH hukumati ko'pgina yirik banklarga

tavakkal ipoteka kreditlarini qotish borasida federal qonunning buzilishiga bog'liq boshqa moliyaviy institutlarga nisbatan ish qo'zg'atdi. Qonunbuzarlar ro'yxatiga kirgan 17 kompaniya ichida Bank of Amerika Corp, Citigroup, JP Morgan Chase & Co, Goldman Sachs lar kirdi. O'shanda Yevropa komissiyasi kredit defolt solishtirmalari (svod) bozorida dunyoning yirik banklari faoliyati ustidan shaxsiy tekshiruvini boshladi. Kuzatuvning asosiy ob'ektlari Barclays, Goldman Sachs, Deutsche banklari bo'ldilar. Bundan tashqari yana 5 ta bank moliyaviy operatsiyalarni qalloblarcha qo'llashda gumon ostida qoldi. Lekin Vashington ob'ektiv kuzatuvga olinmadi. Kuzatuv boshlanishi bilan AQSHning qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasini 9 mingdan ortiq hujjatlarni yo'q qilib yuborishda aybladilarki ular SAC Capital, Bernard Madoff, Goldman Sachs va boshqa moliyaviy tashkilotlar hamda kompaniyalarning ilk kuzatuv ostiga olinishi bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar edi. Bu xaqda AQSH senati sud komitetining a'zosi Charlz Gresliga yetkazilsin deb The Financial Times xabar qildi. Qo'l uchida sharoit shaklini yaratish fakti, buning natijasida chuqur moliyaviy iqtisodiy inqiroz rivojlanishiga imkon yaratildi va hozirgi kungacha iqtisodiy fan nomoyondalarining aybi inkor qilinmoqda. Iqtisod sohasida Nobel mukofotini olgan bir qancha ishlarda „erkin bozor“ orqali boshqaruvning global imkoniyatsizligi bir necha bor isbotlandi. Lekin kutilmaganda- SMI da Shvetsariya olimlarining juda qiziqarli ishi natijalari nashr qilindiki, ular rad etib bo'lmaydigan va quruq raqamlarda bizni tasavvurimizda ko'ringanidek bozor unchalik erkin emas deb ko'rsatdilar. Shvetsariya olimlarining tekshiruv natijalariga asosan eng ko'zga ko'ringan kompaniyalarning birinchi yigirmataligi e'lon qilindi. Bu nashr tarmoq lentalarida uzoq turmagan bo'lsa ham „zamonaviy svilizatsiya“ deb nomlanuvchi mehanizmi tuprog'ida olib borilayotgan o'sha muhim ko'zga ko'ringan yashirin ihtar ko'rinishining biriga aylandi. U, birinchi inqiroz to'lqini davrida yirik dunyo moliyaviy institutlar faoliyati bilan bog'liq ko'zga tashlangan kuzatuv natijalarining biriga aylanishi mumkin edi.

Yuqorida ko'rsatilgan voqealarni umumiy ko'rib chiqa turib, endi bimalol yetarlicha isbot bilan shuni aytish mumkinki, dunyo moliyaviy iqtisodiy inqirozi qandaydir yagona bir g'oyani hayotga tadbqiq etish yo'li bilan atayin sahnalashtirilgan. Madsad – aniq tushunarli, juda katta 15 trln dollar davlat qarzi mavjudligi bilan bog'liq. AQSH xavfsizligiga ko'lanka solayotgan bosim vaximasini eng kamida susaytirish yoki umuman yo'q qilish.

2009-yil qilingan Xalqaro valuta fondi bahosi bo'yicha birinchi inqiroz to'loqidan dunyo iqtisodi 4 trln AQSH dollari yo'qotdi¹³, bu AQSH davlat qarzining uchdan biriga teng keladi. So'ngra Yevropa inqirozi kelib chiqdi. „Jihoz“ va „Asbob“ lar ko'pgina tomondan huddi o'shanday edi, birinchi to'loqinni uyushtirish kabi, aqat endi oddiygina holatlarda harakatlanishga to'g'ri keldi. Yevrohudud davlatlari iqtisodiy inqirozning birinchi to'loqidan paydo bo'lgan holatlarning kuchli bosimi ostida qoldilar. Yevropa mamlakatlarining qarzini bugun arzon sotib olish oson va qiziqarli ish. Tahmin qilib ko'rish mumkin Yevropa ittifoqi qarzdor a'zolarining yangi tayinlangan boshliqlari bekorga Goldman SACH bilan bog'liq bo'lmasa kerak. Mario Dragi- Yevropa markaziy banki prezidenti. Lukas Papadimos – Gretsiya premer ministri. Mario Monti- Italiya hukumati rahbari. Ularning xar biri xar xil davrlarda bu Amerika banki bilan baquvvat buzilmas aloqada bo'lishgan. Yagona Yevropa qarz majburiyatlari to'g'risida jarayonga tayyorgarlik ham bekorga emas. Bu Yevropani iqtisodiy inqirozdan chiqarish uchun effektli „Jihoz“ va investitsiyalarni banklarga qo'yishga umidvor vosita yaratish mehanizmi sifatida targ'ibot qilinmoqda. Lekin aslini olganda bu mehanizm faqat bo'yin tovlamayotgan Germaniya va Fransiyani qattiqroq nazorat qilishga imkon yaratadi.

Iqtisodi anchagina mustahkam bo'lgan (Gretsiya, Italiya va Ispaniya)larning birgalikdagi davlat qarzi bugunga kelib qariyb 5 trln dollarni

¹³ „Yevrostat“ yevropa ittifoqi statistika boshqarmasi ma'lumotlari www.eurostat.com

tashkil etadi. Demak faqat Yevropaning ushbu davlatlarini defolt qilinsa yana AQSHning uchdan bir qismicha davlat qarzi ekvivalentiga teng qiymatni hisobdan chiqarish, uchirib tashlashga to'g'ri keladi. Agar taklif qilinganlarga amal qilinsa, Yevrohudud bo'yicha defoltlar qiymati 4-5 trln dollarga to'liq yetishi mumkin.

Lekin qarzning yana uchdan bir qismi qolyapti. Bugungi kunda davlat qarzini qisqa davr jarayonida yo'q qilish uchun „dunyo hukumati“ umumiy qiymati qolayotgan 5 trln dollarga teng keladigan yana bir katta jarayonni rejalashtirishga to'g'ri keladi.

Bunga qanday erishish mumkin?. Bunda Xitoy iqtisodini ishdan chiqarmasdan erishib bo'lmaydi. Yevropa inqirozini tugatish masalasini yechimi moliyaviy internatsional harakatlar yo'nalishiga qaratiladi. Bunda jarayon oraliq davrida ikki regional tortishuv bo'ladi. Iroq va KXDR – Xitoy „muammosi“ ga kirishishdan oldin vaqt oralig'idagi vazifani- yadro quroli tarqalishi xavfini yo'q qilishni – bajarish kerak.

Demak inqirozning ikkinchi to'liqini yaqinlashuvi haqidagi tashviqot kompaniyasi boshlanishi o'z oldiga yetarlicha asosli maqsadlarni qo'ygan- AQSH davlat qarzi qolgan qismini o'chirib tashlashi shart. Bugungi kunda Yevropadagi asosiy muammo –bu Gretsiyaning qarz muammolaridir. Mamlakat xonavayron bo'lgan u yordamga muhtoj. U ulkan davlat qarziga ega. Agar majburiyatlarni bajarmasa mamlakatga defolt xavf soladi. Bugun Gretsiya davlat qarzi uning YaIM ga nisbatan 150% dan oshib ketgan. Agar mamlakat defolt e'lon qilsa bu boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Gretsiya muammolarining yechimiga Yevrohududning asosiy ishtirokchilari va kreditorlarning „uchtaligi“ kirishdilar.

Yevropa ittifoqi davlatlarining davlat qarzi , Yevropa Statistika markazi malumotlariga ko'ra 87.2% ¹⁴ (YaIM ga nisbatan) ga yetdiki , yagona valutaga o'tgandan so'ng bu rekord ko'rsatkich deb Bloomberg agentligi habar qiladi. Bu ko'rsatkich 2010-yilda 85.3% va 2009-yilda 79.9% edi. 27ta Yevropa ittifoqi davlatlarining davlat qarzi 80% (YaIM ga nisbatan) dan 82.5% gacha , budjet defitsiti 6.5% dan 4.5% ga tushdi. Shu bilan birga 24 ta mamlakatda budjet ahvoli yaxshilandi va ikkitasi yomonlashdi.

Yevrostat ma'lumotlariga ko'ra Yevrohududning birgalikdagi YaIM hajmi 2013 - yilda 9.42 trln yevroni tashkil etdi.

4-Jadval¹⁵

Budjet defitsitida eng yomon ko'rsatkichlar (YaIM ga nisbatan) :

Davlatlar	Budjet defitsiti (YaIM ga nisbatan) % da
Irlandiya	13,1
Gretsiya	9,1
Ispaniya	8,5
Buyuk Britaniya	8,3
Fransiya	5,2

2.2.Qarz inqirozining yevropa mamlakatlariga ta'siri

2011-yil 5-dekabrda Yevropa ittifoqinng 15 a'zo davlatining uzoq muddatli reytingini negative prognozli ko'rsatuvlar bo'limiga ko'chirdi. Agentlik xabar berishicha ko'chirish qarori bir biriga bog'liq besh faktor ta'sirida amalga oshgan. ¹⁶

a)Butun Yuvrohudud bo'ylab shartlarning shafqatsizlanishi.

¹⁴ „Xalqaro Valuta fondi va Yevropa Ittifoqi harakatlari“ „Економист“ jurnali 2013-yil noyabr oyi soni.

¹⁵ „Yevrostat“ yevropa ittifoqi statistika boshqarmasi www.eurostat.com

¹⁶ „Standart and Poors“ reyting agentligi ma'lumotlari www.eurostat.com

b) Ayrim AAA reytingli davlatlar bilan qo'shilgan holda , Yevrohudud mamlakatlarida davlat obligatsiyalari sonining o'sishi uchun mukofotning sezilarli darajada ko'tarilishida.

c) qanday qilib o'tayotgan ishonch inqirozini yengish va uzoq davr ichida Yevrohudud a'zolari soliq,moliyaviy,iqtisodiy tizimlarini kelajakda integratsiyalashni ta'minlash haqida Yevropa siyosiy arboblari orasida konsensusning yo'qligi.

d) kattagina Yevrohudud qismida hududiy sektorlarning va hukumatlar qarzining yuqori darajasi

e) 2012-yil butunlay Yevrohududda iqtisodiy cho'kish xatarining o'sishida.

1992-yil Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarning peshqadamlari tomonidan Mastirix shartnomasi imzolandiki bunda budjet kamomadini moliyalashtirish hajmi va davlat qarzi qiymatini cheklash kuchga kirgan. AQSH ilg'or investitsiya banklari tomonidan kredit berish sharti ostida ishlab chiqilgan murakkab valuta va kredit sanoati asboblari bilan kamomad va davlat qarzi real qiymatini yashirib va bu qoidalarni qator Yevropa ittifoqiga a'zo davlatlar Gretsiya va Italiya qo'shilgan holda o'tildi (Bunda sanoat qimmatli qog'ozlari sdelkasida (olib-sottisida)kontragentlarning tavakkalchiligini cheklash qonuni tufayli banklarning o'zi tavakkalchilikni sezmay o'tdi). AQSH da o'tkazilgan moliyaviy reformalar doirasida moliyaviy inqiroz kirib kelgandan keyin sanoat qimmatli qog'ozlari bozori o'yinchilari tizimi mustaxkamlandi.(shu bilan birga davlat kafolatlariga kirishini yengillashtirish yordamida) shu vaqtning o'zida oziroq maxsuslashtirilgan moliyaviy bozorlar olib-sotdilar bo'yicha habarlarni ochishda minimal talablar o'rnatildi. Gretsiyaning qarz inqirozining rivojlanishiga olib kelgan sabablardan biri yangi Vengriya harakati hukumati tomonidan byudjet kamomadi qiymatini 2009 yil mo'ljallangan 6,8 % dan 12,7 (YaIM) gacha ko'paytirish bo'ldi.(XVF nazoratida 2010yil xarajatlarini qayta ko'rilgandan keyin kamomat 15,4 % ga oshdi).

Gretsiyada qarz inqirozining o'sishidan keyin CMI bu mamlakatning moliyaviy ko'lamiga katta e'tibor qarata boshladi. Baribir ham alohida mamlakatlarda va Yevropa ittifoqi tomonidan statistik davlat qarzi aniq qiymati haqida ma'lumotlarni, davlat qarzi va kamomatini aniq qiymatini yopish uchun manipulyatsiyalash (yolg'on ma'lumot berish) o'sib bormoqda. Bu mavzudagi ma'ruzalarda qator mamlakatlar va alohida Italiya(398), Buyuk Britaniya, Ispaniya(407), AQSH (408), (409), (410) va hatto Germaniya kreativ bigalteriya hisobida misollar tahlil qilindi.

„Davlatlarning qarzini bekor qilish qo'mitasi" nodavlat tashkilot vakillari Lej "YVX mamlakatlarining qarz majburiyatlari mamlakat aholisining zaruriyatlariga zid kelgan taqdirdagina hukumat tomonidan qilingan qarz deb hisoblanishi shart va shuning uchun ham to'lovga tortilmaydilar", ²⁹ -deb hisoblaydilar. Grek xujjatli filmi "Dolgokartiya" (qarz xaritasi)da "Simens"kompanyasi aralashgan va yaqinda bo'lib o'tgan chayqovchilik to'poloni va suv osti lo'tkalarida va xarbiy samolyotlar sotib olish shartiga ko'ra EMB nokomersion kreditlarni tarqatish,bu kreditlar noqonuniylik yoki auditor tekshiruvidan keyin ularning ko'pgina qismi noxoqqoniy bo'lishining imkoneatini guvohi bo'la oladi degan savolni yoshini qidiradi. Ish uy xo'jaliklargacha borib yetganda,biz Yevropada eng katta qarzli mukofotini olishga Britaniya bo'lishi mumkin deb bir necha bor ishonch bilan tahmin qilgandik.Lekin eng kamida naqd pul qarzlari bo'yicha qiziqarli bo'yicha qiziqarli javob quyidagicha-bu Germaniyada xonaki xo'jaliklar har qaysi Yevropa qo'shni davlatlariga nisbatan katta qarzdor bo'lib qoldilar.Germaniyaning axolisi (82 ml),Buyuk Britaniyadan (61 ml) yoki Ispaniyadan (46 ml) ko'p demak boshqa Yevropa davlatkariga nisbatan qarzdorlikning ko'pyig'ilib qolishi ajablanarli emas.

Baribir ham xonaki hujjatlarning qazi va soliq to'langandan keyin qolgan toza daromadni qiyoslasak Germaniyada ahvol hech ham yahshi ko'rinmaydi.(Qarzlari bo'yicha og'ir ahvol bilan oilalar sonini baholashda yomon olchov emas) shema pastda ko'rsatadiki Ispaniyada bu honaki ho'jaliklar ancha ko'p,ularning qarzi soliq to'langandandan keyin yillik daromadning 90 % ga to'g'ri keladi undan keyin Buyuk Britaniya o'zining 75 % bilan lekin Germaniya, Gretsiyaga nisbatan yomon qarz ko'rsatkichlik ko'proq uy ho'jaliklarga ega, bularning aholi yaxshilanganligi bilan ahvol juda havfli bo'lib qolmoqda (boshqalar qarzdorlikda ahvol yomonlashayapti deb

²⁹ "Liberason" gazetasi muxbiri Jan Katremer maqolasi

ko'rsatmoqda).Endi yolg'onlardan biri ochilmoqda-Britanya va Ispanyada xuddi ularning honaki ho'jaliklaridagi kabi ulkan davlat kamomadi ko'rilmogda.

Germaniya moliya masalasida kamrog darajada ochilgan.Bundan tashqari o'zining sanoat eksporti tufayli ular chet elzaymlari pullariga umid qila olmaydilar (o'tayotgan raschetprofisiti kamomatdan yahshi) lekin shuni esda tutish kerekki, agar siz burovning Britanya,Ispanya honaki xo'jaliklari qarzi bo'yicha eng yomon ko'rsatkichlarga ega va qonunbuzarlikka yo'l qo'yilayapti deb aytsa bilingki,bizning tevtonlik qo'shnilarimiz ham "og'ir yukni" ko'tarib yurishadi.

Yevropa molyaviy bozori rivojlanishi imtiyozlariga nisbatan hisobotda, Bank ittifoqi tuzilishi va rivojlanishi dasturlarini o'z vaqtida tadbiq qilishga ishonch ko'tarilishi natijasida Yevropa ittifoqining muommoli davlatlarida suviren obligatsiyalar bozorida stabillashuv kuzatilmoqda deb ko'rsatdi. Shu vaqtning o'zida yevropa moliyaviy sektorida bank kiriditlashuv hajmining qisqartirilishi, kiriditlar, bo'yicha foiz stafkalarining o'sishi muammoli davlatlardagi ko'pgina banklarning banklararo moliyalashuviga kira olishi murakkablashishi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Pragnoz qilinadiki, kiriditlashuv sharoitida faqat agar suveren qarzdorlik bo'yicha supredillar pasaytirilgan holatda Yevropa mamlakatlari orasidagi farq qolmaydi EK pragnozi bo'yicha Yevropa mehnat bozori rivojlanishida Yevropa ittifoqining iqtisodiy faolligini yangilanishi faqat sekinlik bilan yangi ish o'rinlarining yaratilishiga olib keldi. 2013-yilda Yevropa ittifoqida ishsizlik o'sdi va 11.1% ga borib yetdi va Yevropa hududida 12.2% ga yetdi, lekin 2014-yilga kelib Yevropa ittifoqida 11.0% ga pasayadi va EX da esa o'zgarmaydi deb kutilmoqda. Kelayotgan yillarda mehnat bozoridagi ahvol asta sekin stabillasha boshlaydi. Yevropa ittifoqida 2015-yil 10.7% gach yevro hududda 11.8% gacha ishsizlik sathi kamaydi deb habar beryapti. Shu vqtning o'zida Yevropa ittifoq a'zo mamlakatlarini orasida bandlik farqi juda baland bo'lib qoladi. Ishsizlik

ko'rsatkichi tebranadi Avstraliyadagi 5% dan Ispaniyadagi 26.5% gacha. Nihoyat EK o'zining kuzgi ma'ruzasida iqtisodiy o'sish siyosatini stimullashtirish foydasiga budjet kansolidatsiyasi siyosatidan sekin –asta chekinish ro'yobga kelishini pragnoz qilayapti. 2013-yilda Yevropa ittifoqida 3.5% I.Ya.M gacha EX da 3% I.Ya.M gacha budjet kamomatining pasayishi kutilmoqda. Shu vaqtning o'zida davlat qarzi sathi Yevropa ittifoqida 90.2% va EX da 95.9% ni tashkil etib % ni tashkil etib yuqori cho'qqiga borib yetdi. 2007-yildan boshlab 2015-yilda Yevropa ittifoqi hamda EX da uning ozroq qisqarishi kutilmoqda Yevropa iqtisodiy rivojlanishi o'rta hol..... pragnozga qaramay, Yevropadagi mikro iqtisodiy vaziyat juda nozik holda qoldi. Aynan reshanda deflyatsiya vahimasi bo'ldi. EX da oktabirda yillik inflyatsiya havfi past sathga birib yatdi-0.7% ni, 7-noyabrda bo'lib o'tgan yirik Yevropa ittifoqi fondi birjalarining indeksini kirishi va yevropaning almashuv kursini pasayishiga olib kelgan, EMB hisobot stavkalarini yevro bo'yicha 25 bazali punktga (0.25% gacha) pasayishiga sabab bo'ldi. Chet el ekspertlarining fikriga qattiq iqtisod siyosati to'liq o'zini oqlamadi va EMB ning hisobot stavkalarini pasaytirish bo'yich harakatlari EX iqtisodining o'sishini stimullashtirishga qaratilgan “jon talvasa chorasi” gina halos shunday qilib hozirgi vaqtda Yevropa davlatlari iqtisodiy va moliyaviy rivojlanishi munosabatida nomalumlik saqlanib qolinmoqda. Bunga bog'liq holda EK ning kuzgi pragnozini amalga oshirish uchun struktura reformasi o'tkazish va EX moliyaviy rivojlanishi bo'yicha qo'yiladigan keying qadamlar zaruriydir.

Yevrohudud bo'yicha berilga Yevrokomissiya kuzgi pragnosida o'tgan yillar kabi kelasi yil uchun ham Latviyani 2014 yil yanvardan boshlab xududning 18 - a'zosi deb kiritdi. Bunda Yevropa ittifoqi bo'yicha ma'lumotlarda Xorvatiyani ham hisobga kirgizgan. U 2013 yil iyundan Yevropa ittifoqining 28- a'zosi deb tan olindi.

II bob bo'yicha xulosalar

G'arbiy yevropa ishlab chiqarish omillari bilan turli darajada ta'minlangan bo'lib, tabiiy boyliklarga kambag'aldir. Agar mineral xomashyolarning aniqlangan qismi bo'yicha Rossiyada 30-40 trln. dollar, AQSHda 8-8,5 trln, Xitoyda 6-6,5 trln. dollargina hisoblanadi. "Uch kuch markazlari"dan faqat Yaponiyada eng kamdir, ya'ni 0,1 trln. dollar, xolos. Bunday tabiiy taqsimlanuv G'arbiy yevropaning chet dunyoga bu sohadagi qaramligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham G'arbiy yevropa mamlakatlari ishlatayotgan 2/5 qism energiyani va $\frac{3}{4}$ qism boshqa xomashyolarni import qiladi. Iqtisodiy rivoj sohasidagi siljishlar jahon iqtisodiyotidagi G'arbiy yevropaning mustahkamlanishiga olib keladi. Bunga suyanagan holda texnologik qoloqlikni oldini olish bo'yicha bir necha yirik ishlar amalga oshirildi. 1985 – yildan uzoq davom etgan iqtisodiy rivojlanish intensiv ravishda bo'lib, to 1990 yillargacha davom etdi.

Davlat qarzi dinamikasiga nazar tashlasak , ko'plab Yevropa mamlakatlari davlat qarzlari oxirgi yillar davomida faqat o'sish ko'rsatkichlarini namoyish qilmoqda. Ayniqsa bu botqoqqa Gretsiya, Italiya va Irlandiya chuqur sho'ng'iganlar. Ushbu davlatlarda ishsizlik darajasi baland. Budget kamomadi ham yuqori. Yevrokomissiya paketlari bilangina mamlakatlar iqtisodiy tanqislikdan qutilib,defoltdan qochmoqda. Ammo Yevropa shartnomasida esa bunday holatda albatta defolt e'lon qilish shartligi ko'rsatilgan.

III-bob. YEVIROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARI DAVLAT QARZLARINI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Davlat qarzlarning ko'payib ketishining sabablaridan biri bu yevrozonada budget tartibiga rioya qilmaganlik bo'ldi. Davlat budgeti defitsitining haddan tashqari oshib ketishiga qarshi yo'naltirilgan yagona mexanizm 1997-yilda Amsterdamda qabul qilingan "O'sish va barqarorlik Pakti" edi. Bu pakt barcha Yevropa Ittifoqi a'zolari uchun qat'iy bo'lgan qoidalarini o'z ichiga olgan edi: jumladan, budget defitsitining YaIMga nisbatan 3%dan oshib ketmasligi; davlat qarzi butun YaIMning 60%idan kam bo'lishi. Lekin 2003-yilda Germaniya va Fransiyaning budget defitsiti 3%dan oshgan bo'lsa ham EKOFIN Ittifoqi tomonidan qabul qilingan qarorga muvofiq sanksiyalardan ozod etildi va natijada bu paktning obro'yiga putur yetkazildi. Pakt qoidalarining buzilishi va talablariga to'la rioya qilinmaganligi sababli o'sha davrda yevrozonada kurtak ochayotgan inqiroz alomatlarini sezish va ularga qarshi kurashishga imkon bo'lmadi.

Budget tartiblariga (distsiplinasiga) rioya qilinmaganlik yevrozonadagi yagona inqiroz sababi bo'lmadi. Inqiroz oqibatlarining zanjirli tarzda butun yevrozonaga tarqalib ketishi Iqtisodiy va Valyuta Ittifoqi tashkil etilganida shakllanishi kerak bo'lgan antikrizis boshqaruv instrumentlarining yo'qligini ko'rsatdi.

Iqtisodiy va Valyuta Ittifoqiva yevroning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va bandlik uchun qulay sharoit yaratish hisobiga yevrozona va umuman Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdir. Lekin yevro o'z o'zidan mamlakatni iqtisodiy o'sishga va barqarorlikka olib kelmaydi. Yagona valyuta (yevro) Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining rioya qiladigan boshqaruv qoidalarini qo'llagan holda, yevrozona iqtisodiyotining ishonchli menejmenti tomonidan mustahkamlanib turilishi kerak.

Iqtisodiy va Valyuta Ittifoqining moliyaviy barqarorligi va tartibining asosiy dastagi bo'lib "O'sish va barqarorlik Paketi" xizmat qiladi. Inqiroz orqali vujudga kelgan muammolar bu Paktning kompleksli va qat'iy qo'llanilishini talab etdi. Shu maqsadda 2011-yil dekabrda kuchga kirgan oltita qonuniy hujjatda yangi qonun-qoidalar o'z aksini topdi. Masalan, endilikda katta e'tibor davlat qarzining yuqori darajasini pasaytirishga qaratilgan. Natijada budjet defitsitining haddan tashqari oshib ketishini likvidatsiya qiluvchi(bartaraf etuvchi) prosedura qo'llanila boshlandi. Bu jarayon nafaqat budjet defitsitiga, balki davlat qarzining hajmiga ham samarali ta'sir ko'rsata oladi. Endilikda yevrozona mamlakatlariga budjet va soliq tizimida qat'iy talablar qo'yilib, ularga rioya etmaslik yevrozona mamlakatlariga ma'lum sanksiyalar qo'yilishiga olib keladi. Bu choralar davlatlarning bu qoidalarga rioya etib, kelajakda navbatdagi qarz inqirozi kelib chiqishini oldini oladi.

2012-yil iyunida bo'lib o'tgan Yevropa Ittifoqi yig'ilishida haqiqiy Iqtisodiy va Valyuta Ittifoqining rejalarini bosqichma-bosqich "yo'l xaritasida" aks ettirish masalasi qo'yildi. Unda mukammallashtirilgan Iqtisodiy va Valyuta Ittifoqining quyidagi prinsiplari aks ettirildi:

1.Bank Ittifoqi. Bank Ittifoqini shakllantirishda birinchi qo'yiladigan qadam Yagona nazorat mexanizmini tashkil etilishidir. Bu mexanizm Yevropa Markaziy Banki tomonidan boshqariladi. Yagona nazorat mexanizmi 2014-yil martidan boshlab kuchga kirishi kerak. Bank Ittifoqi tomoniga yo'naltirilgan keyingi bosqich bu Yagona nazorat mexanizmida ishtirok etayotgan davlatlar uchun Banklar Restrukturizatsiyasining Yagona Mexanizmini joriy etish bo'ladi.

2.Fiskal Ittifoq. Fiskal ittifoqni tuzishdan asosiy maqsad – yevrozona mamlakatlarining davlat budjetini nazorat qilish orqali yevrozonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashdan iborat.

3. Yevrozona davlatlari iqtisodiy siyosatining kuchli koordinatsiyasi (quyidagi usullar orqali):

- yevrozona davlatlarida iqtisodiy reformalar o'tkazish koordinatsiyasini kuchaytirish;
- Iqtisodiy va Valyuta Ittifoqida ijtimoiy muhitni ta'minlash;
- yevrozona davlatlari uchun majburiy, boshqa davlatlar uchun esa ixtiyoriy bo'lgan, raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sish shartnomalarini joriy etish;
- bu shartnomalarni qo'llab-quvvatlash uchun birdamlik mexanizmlarini ishlab chiqish.

4. Demokratik qonuniyatchilik.

Budjet va soliq siyosatini mustahkamlashdan tashqari Yevropa Ittifoqi makroiqtisodiy disbalansni o'z vaqtida yo'q qiluvchi va nazorat qiluvchi tizimni ishlab chiqdi. Uning vazifasi- sun'iy ravishda stavkalari ko'tarilgan aktivlarning paydo bo'lishi va raqobatbardoshlikning susayishi kabi iqtisodiyotdagi salbiy o'zgarishlarni, bu o'zgarishlar yevrozona va umuman Yevropa Ittifoqi davlatlari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etishidan oldin oldini olishdan iboratdir. Shuning uchun ham potensial makroiqtisodiy disbalansga tegishli bo'lgan ko'rsatkichlar savdo-sotiq, xalqaro investitsiyalar, mehnat qiymati, xususiy va davlat qarzi, uy-joy narxlari va ishsizlik kabi sohalarida nazorat ostiga olingan. Agar u yoki bu davlat budjetida disbalans aniqlansa, u holda bu davlat, hukm surayotgan ahvol butun yevrozonaga ta'sir etishidan oldin chora-tadbirlarni ko'rishi kerak, aks holda bu davlatga ma'lum sanksiyalar e'lon qilinadi. 1992-yil Yevropa ittifoqi a'zolari vakillari Maastrix shartnomasini imzoladilar, uning shartlariga binoan ular budjet kamomadi va davlat qarzi darajasini cheklashga vada berdilar. Lekin Gretsiya va Italiya qo'shilgan holda qator mamlakatlar, kredit ishlab chiqaruv qimmatli qog'ozlari va valutalar bo'yicha murakkab olib sotdilar yordamida,

qarzdorlik kamomad qiymatini yashirib bu qoidalarni cheklab o'tdilar. Ishlab chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olib sotdilar tuzilishi bo'yicha kontagentlarga beriladigan alohida qonuniy himoya tufayli unga katta bo'lmagan kredit xatarini bo'yniga olgan va o'z xizmatlari uchun katta kompensatsiya (o'rin qoplash) oladigan AQSH ilg'or investitsiya banklari tomonidan oldi sotdilar ishlab chiqilgan edi.

Bu xarakatlarda norozi bo'lib jahli chiqqan qator iqtisodchilar keskin tanqid bilan chiqdilarki, unga ko'ra qator Yevropa mamlakatlaridagi davlat qarzining o'sishi haddan tashqari ko'p davlat xarajatlaridan kelib chiqqan. Bu iqtisodchilarning tekshiruv natijalariga asosan davlat qarzining o'sishi ,2000-yil oxirida moliyaviy sektorga moliyaviy inqiroz vaqtida shoshilinch yordam ko'rsatilishi va undan so'ng dunyo iqtisodiy chiqimi kirib kelgani bilan chaqirilgan. 2007- yilda Yevrohududda byudjet-moliyaviy kamomadi faqat 0.6% YaIM tashkil qildi,moliyaviy inqiroz davrida esa u 7% gacha o'sdi,davlat qarzining o'rtacha qiymati 66% dan 84% (YaIM ga nisbatan) gacha o'sdi. Yevrohududda budjet kamomadi va davlat qarzi qiymati bir xil muvozanatda bo'ldi yoki hatto 1990-yil boshidan boshlab qisqara boshlagan edi. Amerika iqtisodchisi Pol Xrirmak fikri bo'yicha bu inqiroz asosida Gretsiya hukumatining moliyaviy javobgarligi yotadi.

Xar qanday vaziyatda ham inqirozining boshlanishini bir mamlakatda yuqori qarzdorlik bo'lishi bilan ifodalab bo'lmaydi. „Iqtisodchi “ jurnali analitik agentlari ma'lumotiga ko'ra Yevrohudud iqtisodiy vaziyat AQSh va Buyuk Britaniyaga nisbatan yomon emas edi, hatto ayrim sohalarda ustun ham edi. AQSHga nisbatan Yevrohududda umuman olganda budjet kamomadi anchagina kam , davlat qarzi esa YaIM ga nisbatan Yevrohududda 2010-yilda 86% ni tashkil etdi,aniqrog'I tahminan AQSh bilan bir xil darajada edi. Bundan tashqari Yevrohududdagi hususiy sektorning qarzdorlik darajasi anglo-sakson kapitalizmi atalmish davlatlarga zayom kapitali baland bo'lgan

davlatlarga(Buyuk Britaniya,AQSh,Kanada,Yangi Zillandiya, Avstraliya va Irlandiya) nisbatan anchagina past edi. Koliforniya universiteti iqtisodchisi Barri Eyxergen o'z hamkasblari bilan , Gretsiya budjeti 2010-yildan boshlab kamomadli, Irlandiya va Ispaniya budjetlari 2007-yilgacha profitsitli edi – bu mamlakatlarning budjet kamomadlari inqiroz natijasi sababli emas edi deb baholadi.

Yevrohudud tizimi qarshi tizimdir , faqat valutaga tayangan (mamlakatlarni yagona va valuta birlashtiradi) lekin soliq – budjet ittifoqi emas. Mamlakatlar turli soliqqa tortish ,nafaqa fondi va budjetlar tizimini saqlab qolgan. Yevrohudud mamlakatlari doirasida mamlakatlarga umum moliyaviy siyosiy kursdan boorish taklif qilinadi. Unda umumiy g'aznachilik yo'q. Yagona kredit-pul siyosati bilan birlashtirilgan davlatlar soliq budjet siyosati doirasida davlat xarajatida va soliqqa tortishda mustaqillikni saqlab qolishdi. Shuning uchun ham pul kredit siyosati va uni amalga oshirish umumiy tashkiloti(YMB) bo'yicha qator kelishuvlar borligiga qaramay Yevrohududga a'zo mamlakatlari unga bo'ysunishlariga qurlari ystmasliklari mumkin yoki oddiygina rad etishlari mumkin. Nazoratni amalgam oshirishda qiyinchilik va milliy moliya tashkilotlar faoliyatini meyorlashtirish shunga olib keldi. Yevrohudud proferiy mamlakatlari, asosan Gretsiya o'z soliq –budjet siyosati hisobida aniq , tekin imkoniyatlar ola boshladi. Bundan tashqari Yevrohudud strukturasi juda mukammal bo'lib qolmoqda , qarorlar qabul qilish uchun operativ aralashish Yevropa ittifoqidagi 17 a'zo davlatning bir ovozda qo'llashini talab qiladi. Bunga qisqa vaqt ichida erishish juda og'ir, chunki bunga o'xshash qator qaror qabul qilinishi iqtisodiy zanjir reksiyasining rivojlanishini oldini olishni umidsizligini keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari 2012-yilda yevrohududda „bank kengashi” ham mavjud emas yoki moliyaviy qiyinchiliklarni his qilayotgan banklarni yo'qqa chiqarish yoki qayta moliyalash o'tkazish uchun bank kuzatuv prinsiplarining umum

uslubi, bank jamg'armalarini kafolatlash muammolari yechimida umumiy yo'nalishlar yo'q. Bank jamg'armalarini kafolatlash, bank mablag'larni vahimaga tushib qolgach qaytib olinishi vaziyatdan qutulishga imkon beradi. Rekapitalizatsiya – bu banklarga majburiyatlarni to'lash va kelajakda ham kreditlar taqdim etishni amalgam oshirish uchun pul vositalarini taqdim etish: AQShda muammoli aktivlarni sotib olish dasturi doirasida 2008-yil banklar rekapitalizatsiyasi amalgam oshirildi.


7-Jadval³⁰

Yevropa ittifoqi mamlakatlarini qo'llab quvvatlash dasturlarining hajmi

Mamlakatlar	Milliy banklarni qo'llab quvvatlash dasturlarining hajmi, mlrd dollar	Iqtisodiy rag'batlantirish paketlarining hajmi	
		Mrld dollar	YaIM ga nisbatan % da
Buyuk Britaniya	1093.7	39.7	1.5
Germaniya	775.9	94.9	2.6
Daniya	755.9	7.5	2.2
Fransiya	490.1	27.9	1.0
Belgiya	370.3	4.5	0.9
Niderlandiya	344.5	8.5	1.0
Avstriya	231.0	9.8	2.4
Shvetsiya	198.8	11.0	2.4
Ispaniya	182.0	72.0	4.6

³⁰ „Eurostat“ Yevropa ittifoqi statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Yevrohudud mamlakatlarida inqirozga qarshi choralar dasturi uchun berilgan kreditlar, YaIMga nisbatan, mlrd yevro



Oxirgi 2yil ichida Yevropa inqirozi bilan kurashda Yevrokomissiyaning roli o'sdi. Komissiya tomonidan olib borilayotgan reformalar natijada yevrozona sektorining moliyaviy barqarorligini ta'minlash instrumenti sifatida mukammallashtirilgan bank nazoratining boshlang'ich nuqtasi bo'lib hamda Yevropa Ittifoqining budget va iqtisodiy siyosatini boshqarishning samarali tizimi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, Komissiyaning ta'kidlashicha, Iqtisodiy va Valyuta Ittifoqidagi reformalar Yevropa Ittifoqi davlatlarining siyosiy hamkorligisiz amalga oshmaydi.

2012-yil martida Yevropa Ittifoqining 25ta davlati (Buyuk Britaniya va Chexiyadan tashqari) tomonidan imzolangan "Iqtisodiy va Valyuta Ittifoqining barqarorlik, koordinatsiya va boshqaruv Pakti" yevrozona va umuman Yevropa

³¹ „Eurostat“ Yevropa ittifoqi statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Ittifoqida budget tartibini mustahkamlash va iqtisodiy siyosatni to'g'ri yo'lga qo'yish tizimini yaratish borasida muhim qadam bo'ldi. Shartnoma 2013-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirdi. Bu pakt Yevropa Ittifoqi a'zolari uchun budget tartiblariga rioya qilishning mavjud qoidalardanda qat'iy qoidalarini o'zida aks ettirgan. Bu "oltin qoidalar" quyidagilardir:

-budgetlar balanslashtirilgan yoki profitsit bilan chiqqan bo'lishi kerak: budget defitsitining mumkin bo'lgan normasi (tashqi faktorlarni inobatga olmagan holda, masalan, davlat qarzini uzishi yoki jahon iqtisodiy konyukturaning yomonlashuvi) butun YaIMning 0,5%dan oshmasligi kerak.

-davlat qarzini YaIMning 60%dan kamaytirish, ya'ni bu ko'rsatkich normaga kelmaguncha har yili 5%dan qisqartirish;

-davlat qarzi YaIMning 60%idan kam bo'lgan davlatlar uchun budget defitsiti YaIMning 1%gacha bo'lishi mumkin;

-budget defitsitining eng yuqori chegarasi YaIMning 3%dan oshmasligi kerak;

-bu normativlar shartnoma ishtirokchilarining har birining davlat moliyaviy siyosatida vamiilliy reforma dasturlarida aks ettirilgan bo'lishi kerak.

Iqtisodiy o'sish bilan bog'liq olib borilayotgan choralarni ko'radigan bo'lsak, "Yevropa_2020" –bu samarali, barqaror va kengqamrovli iqtisodiyotni shakllantirish uchun Yevropa Ittifoqining yaqin o'n yil ichidagi o'sish strategiyasidir. Bu dastur yevrozona davlatlariga bandlikning yuqori darajasini va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Keyinchalik ro'y beradigan progressni baholash uchun Yevropa Ittifoqi o'z oldiga 2020-yilgacha ma'lum sohalarda bajarilishi kerak bo'lgan 5ta yirik maqsadni qo'ydi. Bu sohalarga: bandlik, innovatsiya, ta'lim, ijtimoiy integratsiya va iqlim kabilar kiradi. Yevrozonadagi har bir davlat ham, o'z navbatida, o'z oldiga bu sohalardamilliy maqsadlarini shakllantirdi.

2009-yil iyunida xalqaro miqyosda inqirozga qarshi choralarni amalga oshirish uchun 1999-yilda tashkil etilgan Moliyaviy Barqarorlik Forumi (Financial Stability Forum) Moliyaviy Barqarorlik Ittifoqiga (MBI), ya'ni milliy moliyaviy regulyator va xalqaro tashkilotlarning moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash borasidagi hamkorligining norasmiy maydoniga aylantirildi.

Bugungi kunga kelib MBI tarkibiga “Guruh-20”, Xalqaro Hisob Banki, Yevropa Markaziy Banki, Yevrokomissiya, Xalqaro Valyuta Fondi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Xalqaro Bank kabi tashkilotlar va Bank nazorati bo'yicha Bazell Qo'mitasi, Global moliyaviy tizim bo'yicha Qo'mita, Hisob va to'lov bo'yicha Qo'mita, Sug'urta nazorati organlarining xalqaro assotsiatsiyasi, Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha Ittifoq, Qimmatli qog'ozlar bo'yicha Xalqaro komissiya kabi xalqaro organlar kiradi.

MBIning asosiy vazifasi – moliya bozorlarining faoliyatini mukammallashtirish, moliya tizimining oqsaydigan tomonlarini aniqlash, jahon mamlakatlari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, xalqaro va milliy nazorat organlarining ahmkorligi va axborot almashuvi yordamida tizimli riskni kamaytirish hamda bu nazorat organlarini qo'llab-quvvatlash.

MBI faoliyatining ustuvor yo'nalishlari:

- tizim uchun muhim hisoblangan moliya institutlarining faoliyatini nazorat qilish hamda barqarorsizlikni oldini olish rejimiga va kapitalga bo'lgan talabni mukammallashtirish;

- banklar faoliyatini nazorat qilish;

- birjadan tashqari derivativlar bozorini qayta shakllantirish;

- moliya institutlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish amaliyotini mukammallashtirish;

- reyting agentliklarining baholariga bo'lgan bog'liqlikni kamaytirish;
- yuridik shaxslarning Yagona global kodini tuzish;
- yangi standartlarni kiritish va tavsiyalarni realizatsiya qilinishini monitoring qilishdan iborat.

Bundan tashqari xalqaro miqyosda iqtisodiy o'sishni va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida Iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlash Kann rejasi ham tuzilgan. Bunga sabab, Yevropaning ba'zi mamlakatlarida suveren qarzdorlik bilan bog'liq bo'lgan muammolar bank tizimida foizli xarajatlarning murakkab o'sish dinamikasini yaratdi, bu esa yevrozonaning real sektoriga ham ta'sir eta boshladi. Shuning uchun ham, bugundi kunga kelib yevrozonada iqtisodiy o'sishning past darajalari, ishsizlikning esa yuqori darajasi namoyon bo'lmoqda.

Kann rejasida keltirilgan masalalarni yechish uchun avvalo iqtisodiy siyosat sohasida xalqaro hamkorlikka erishish, bu hamkorlik orqali iqtisodiy o'sishni va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va davlatlarning bir-biriga bo'lgan ishonchini tiklash zarurligi ko'rsatilgan.

Kann rejasiga muvofiq quyidagi chora-tadbirlar bajarilishi ko'zda tutilgan:

Qisqa muddatli beqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni yo'q qilish va moliyaviy barqarorlikni qayta tiklash.

Rejada yaqin muddatlarda iqtisodiyotni qayta tiklash, iqtisodiy o'sishga ko'mak berish va moliyaviy barqarorlikni shunday ta'minlashki, bu harakatlar tuzilgan o'rta muddatli maqsadlarga muvofiq kelishi ko'rsatilgan:

Avvalambor, bank va moliya bozorlarining barqarorligini ta'minlash zarur. Banklar kapitallashuvini va ularning mavjud risklarni bartaraf etish uchun moliyalashtirishga bo'lgan imkonini ta'minlash. Bunda markaziy banklar

keyinchalik ham banklarni muhtojlik darajasiga qarab kerakli likvidlik bilan ta'minlashadi.

a) O'rta muddatli maqsadda pul-kredit siyosati narxlar barqarorligini ta'minlab turadi va iqtisodiyotning qayta tiklanishiga xizmat qiladi. Mamlakatlarning konkret shart-sharoitlardan kelib chiqib, hamda fiskal konsolidatsiya o'tkazishning o'rta muddatli rejalarni inobatga olgan holda, pul-kredit siyosati iqtisodiyotda konyukturaning o'zgarishiga va moliya bozorlaridagi ahvolga, ularning o'rta muddatli maqsadlardagi narxlar dinamikasiga qay tarzda ta'sir ko'rsatishiga qarab o'z ta'sirini o'tkazadi va tartibga soladi.

b) Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar, ichki sharoitlarni inobatga olgan holda, iqtisodiy o'sishga ko'maklashish va davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash borasida choralar ko'rishi zarur hamda budjet konsolidatsiyasida aniq, qat'iy va o'zini oqlaydigan choralar ko'rishlari zarur.

c) Yevrozona mamlakatlari yevro hududda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida qator chora-tadbirlar va qarorlar qabul qilishni o'z zimmasiga oldi.

Bu majburiyatlarni quyidagi paketda o'z ifodasini topdi:

a) 2011-yil 21-iyulida moliya barqarorligining Yevropa mexanizmining egiluvchanlik darajasi oshirilgandan so'ng, shu yilning 26-oktabrida yevrozona mamlakatlarining sammitida bu mexanizm moliyaviy resurslarini moliyaviy dastaklarni qo'llagan holda 1 trln. yevrogacha oshirishga kelishilgan.

b) Yevrozona mamlakatlari iqtisodiy va budjet siyosatida olib boriladigan nazoratni kuchaytirish va yevrozonada boshqaruv sifatini oshirishga kelishilgan.

c) Suveren qarzdorlik bozorida o'zida bosim sezgan yevrozona davlatlari tomonidan fiskal konsolidatsiya va tizimli reformalarga oid chora-tadbirlar ko'riladi.

d)Gretsiya davlat qarzining barqarorligini siyosatni aniqlashtiruvchi dasturni qo'llagan holda, hamda Gretsiya davlat qarzini ixtiyoriy ravishda xususiy sektorga o'tkazish orqali ta'minlash.

f)Bank sektoriga bo'lgan ishonchni kuchaytirish borasida qator chora-tadbirlar majmui qabul qilindi. Bu jarayonni tezkor moliyalashtirish yo'lini yaxshilash va yirik banklarning birinchi darajali kapital yetarliligini 9%gacha oshirish orqali va bunda iqtisodiyotning real sektoriga kredit oqimini qo'llab- quvvatlash orqali o'tkazish ko'zda tutilgan.

g)Italiya ham o'z budjetining balanslashuvini va davlat qarzini kamaytirishni o'z oldiga maqsad qilib oldi. Bu maqsadlar yevropa qonunchiligida ham, budjetning balanslashuvi to'g'risida konstitutsion qonunlarda ham ko'rsatilgan budjet qonun-qoidalarini mustahkamlashga tayanadi.

h)AQSh ham o'sishni qo'llab-quvvatlash to'g'risida qisqa muddatli choralarni davlat investitsiyalari, soliq tizimidagi reformalar va yangi ish o'rinlarini yaratish yordamida amalga oshiradi.

i)Yaponiya tabiiy ofatlar natijasida vujudga kelgan va 19trln. Iyenga (taxminan YaIMning 4%i) baholangan zararni qoplash va barcha moddiyliklarni qayta tiklash uchun budjet-soliq siyosatida tezkor choralarni o'rta muddatli budjet konsolidatsiyasini o'tkazish majburiyatini olgan holda o'tkazadi.

j)Avstraliya, Braziliya, Kanada, Xitoy, Germaniya, Koreya va Indoneziya kabi davlat moliyaviy resurslari nisbatan mustahkam bo'lgan davlatlar, o'zining milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda, xalqaro iqtisodiy konyukturaning keskin yomonlashuvi holatida avtomatik budjet stabilizatori vazifasini o'z bo'ynilariga olishga rozi bo'lishdi. Shu bilan birga, bu davlatlar o'z budjet-soliq tizimidagi maqsadlarini amalga oshirgan holda, xususiy talabni ta'minlash maqsadida qo'shimcha choralarni ko'rishga ham tayyordirlar.

k)Bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlar o'z iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash maqsadida makroiqtisodiy siyosatda qator choralar

ko'rishadi. Bu mamlakatlar ichida joriy operatsiyalar bo'yicha profitsit bilan chiqqan bo'lsa, ular ichki iqtisodiy o'sishga kata e'tibor qaratilgan modelga o'tish makroiqtisodiy siyosatni qabul qiladilar va bu bilan global iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydilar.

Yevropa Ittifoqidagi inqirozdan chiqish takliflaridan yana bittasi Yevropa Moliyaviy Barqarorlik Fondining tashkil etilishi bo'ldi.

Yevropa Moliyaviy Barqarorlik Fondi- yevrozona mamlakatlari tomonidan moliyalashtiriladigan, maqsadli yo'naltirilgan fond bo'lib, Yevropadagi qarz inqiroziga qarshi kurashish uchun tashkil etilgan. Uning tashkil etilishi Yevropa Ittifoqining 27ta mamlakatlari tomonidan 2010-yil 9-mayida ma'qullandi. Fond faoliyati Yevropada moliyaviy barqarorlikni saqlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu faoliyatni iqtisodiy qiyinchiliklar yuz bergan paytda yevrozona davlatlariga moliyaviy yordam berish orqali amalga oshiradi. Fondning shtab-kvartirasi Lyuksemburgda joylashgan. Yevropa investitsiya banki fondga pul mablag'larini boshqarish va ma'muriy ko'mak berish kabi xizmatlarni ko'rsatadi.

Bundan tashqari fond kredit berish, banklar rekapitalizatsiyasini o'tkazish yoki davlat obligatsiyalarini sotib olish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni jalb qilish uchun obligatsiyalar va boshqa turdagi qarzli majburiyatlarni chiqarish huquqiga ega. Fond faoliyatini nazorat va koordinatsiya qiluvchi tashkilot Germaniya moliyaviy agentligi Deutsche Finanzagentur amalga oshiradi.

Yevrozona mamlakatlari tomonidan obligatsiyalar bo'yicha beriladigan kafolatlar, ularning Yevropa Markaziy Bankidagi aksionerlik kapitalining to'lagan qismiga proporsional. Fonddagi kredit bo'yicha kafolatlar yevrozona mamlakatlari tomonidan birgalikda va individual tarzda taqdim etiladi: davlatlar fondlari ixtiyoridagi mablag'larning umumiy hajmi 440mrld. yevro. Yevropa Komissiyasi tomonidan moliyalashtiriladigan va unga kafil sifatida Yevropa

Ittifoqining budjeti chiqadigan Yevropa moliyaviy barqarorlik mexanizmining 60 mlrd.yevro hajmidagi krediti hamda 250 mlrd.yevro hajmidagi Jahon Valyuta Fondining krediti bilan birga, fond moliya tizimining barqaror faoliyat olib borishini ta'minlaydigan tizimning tashkil etilishi uchun umumiy hajmda 780 mlrd. yevro summadagi mablag'ga ega hisoblanadi.

Yevropa barqarorlik fondi obligatsiyalarni birinchi marta 2011-yil 25-yanvarida chiqarishni boshlagan edi, ular besh yil muddatga mo'ljallangan va 5 trln.yevro summadan iborat edi hamda buyurtmalar kitobida 44,5 mlrd.yevro hajmidagi summani jalb qildi. Bu summa Yevropa davlat obligatsiyalari bozori uchun rekord summa hisoblanib, Yevropa moliyaviy barqarorlik mexanizmi dasturi bo'yicha chiqarilgan obligatsiyalarni 2011-yil yanvar oyining birinchi haftasida sotishdan tushgan summaga qaraganda 24,5mlrd.yevroga ko'pdir.

2011-yil 29-noyabrda Yevropa Ittifoqi davlat-a'zolarining moliya vazirlari tomonidan fond faoliyatini kengaytirish to'g'risida shartnoma imzolandi: iqtisodiyoti barqaror bo'lmagan yevrozona malakatlarining chiqaradigan yangi davlat obligatsiyalari investitsiyalarning butun hajmidan 30% kafolatga ega bo'lgan sertifikatlar chiqarilishiga ruxsat etilgan. Bundan tashqari, Yevropa Moliyaviy Barqarorlik Fondiga birlamchi va ikkilamchi obligatsiyalar bozorlarida o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida yangi investitsiya instrumentlarini yaratishga ruxsat berildi.

Yevropa Ittifoqi Yevropa Moliyaviy Barqarorlik Fondining(YMBF) tashkil etilishi haqida e'lon qilganidan so'ng, aksiyalar kursi butun jahon bo'yicha tez sur'atlarda o'sishni boshladi. Fondning yaratilishi natijasida Gretsiyadagi qarz inqirozi boshqa davlatlarga tarqalib ketmaydi, degan umid bilan yevrozona mamlakatlarining ko'pgina aksiyalarga bo'lgan talabi oshdi va natijada bu aksiya kurslarining o'zining rekord summasigacha o'sishiga olib keldi. Yevro kursi oxirgi 18 oy ichida o'zining eng yuqori darajasiga yetdi, lekin bir haftalardan so'ng oxirgi to'rt yil ichidagi eng past darajasiga tushdi. Yaqin

orada qisqa muddatli moliya bozorlarining olib-sotarlari va xedj-fondlar kursning pasayishi ustidan foyda ko'rishni to'xtatib, valyuta aktivlari ustidan chayqovchilikni boshlashdi, bu esa yevro kursining yana o'sishiga olib keldi. Shuningdek, YMBF ning tashkil etilishi haqidagi e'londan so'ng xomashyo va materiallar narxlarining oshishi ro'y berdi. Libor stavkasi (AQSh dollarida) oxirgi to'qqiz oy ichida o'zining eng yuqori darajasiga yetdi. Bozor indeksining o'zgarish ko'rsatkichi o'zining rekord darajasigacha tushdi- qariyb 30%. Keyinchalik bu indeks yuqori darajaga yetgandan song. Gretsiyaga moliyaviy yordam berishga qaror qabul qilindi. YMBFning tashkil etilishi dastlab investorlar tomonidan Yevropa Markaziy Bankining ikkilamchi moliya bozorlaridan davlat obligatsiyalarini sotib olish bo'yicha kompaniyasi sifatida qabul qilindi. Bunday kompaniyalar esa, qoidaga binoan, sotib olingan obligatsiyalardan keladigan foyda darajasining tushishiga olib keladi. Shuning uchun ham, Gretsiyaning davlat obligatsiyalardan kelgan daromad darajasi 10%dan 5%ga tushib ketdi. Yevropa Ittifoqining Gretsiyaga moliyaviy yordam ko'rsatganidan so'ng, xuddi shunday ko'pgina Osiyo mamlakatlarining davlat obligatsiyalardan keladigan daromad darajasi keskin pasaydi.

Yevropa Moliyaviy Barqarorlik Fondi yevrozona hududidagi u yoki bu davlatning moliyaviy yordam ko'rsatilishi to'g'risidagi so'rovi tushganidan keyingina moliyaviy mablag'larning jalb qilishni boshlaydi. 2011-yil dekabrda qadar bu jarayon ikki marta ro'y berdi: 2010-yil noyabrda fond Irlandiyaga 17,7mlrd.yevro hajmida moliyaviy yordam ko'rsatdi (kreditning umumiy hajmi 67,5mlrd.yevroni tashkil etdi; shuningdek, moliyaviy mablag'lar qator Yevropa mamlakatlari, Yevropa Komissiyasi va Jahon Valyuta Fondi tomonidan ham berildi). 2011-yil mayda fond umumiy mablag'larning uchdan bir qismini, ya'ni 78mlrd.yevro hajmdagi tezkor moliyaviy yordamni Portugaliyaga ko'rsatdi. Shuningdek, Gretsiyaga moliyaviy yordamning ikkinchi paketi doirasida 164mlrd.yevro hajmdagi kredit 2014-yilgacha berildi (130mlrd. yangi qarz va

Gretsiya kredit chizig'ida qolgan 34,4 mlrd.). Shu tariqa, Yevropa Moliyaviy Barqarorlik Fondi huzurida 250 mlrd.yevro qoldi yoki qarz mablag'larini jalb qilish natijasida bu summa 750mlrd. yevroga aylanadi. Nemis gazetasi “Zyuddoyche tsaytung” mutaxassislarining axvorot berishicha, iqtisodiyotida qiyinchiliklar mavjud bo'lgan Yevropa davlatlarini qayta moliyalashtirish zarurati tug'ilsa, fond tarkibidagi bu summa 2012-yilgacha yetishini qayd etib o'tishgan edi.

Xulosa

Yevropa ittifoqi mamlakatlari davlat qarzini tahlil qilishda asosiy etibor uning qay darajadaligi , o'sish su'ratlari va uni qanday yo'llar bilan bartaraf etish mumkinligiga qaratiladi. Yevropa ittifoqiga kiruvchi davlatlar orasida yuqori qarz middori bilan bir necha davlatlar yetakchilik qilmoqda. Bular , Gretsiya , Irlandiya, Italiya va boshqa mamlakatlardir. Hulosa o'rnida bir narsani aniq aytish mumkinki bu qarz inqirozlari mamlakatlarni defoltga tomon yetaklamoqda.

Mamlakatimiz davlat qarzi ko'rsatkichlari bilan dunyoda yuqori o'rinlardan birini egallaydi. Davlat qarzi YaIM ga nisbatan 18%dan oshmaganligi, YaIM ko'rsatkichlari yuqori darajada ekanligi, Yevropa davlatlari iqtisodiyoti bizga nisbatan yomon ko'rsatkichda ekanligini bildiradi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari davlat qarzi ko'rsatkichlariga nazar tashlasak 2013-yil 1-chorak yakunlari bo'yicha Yevropa ittifoqi umumiy qarzi 11111990 mln yevroni , YaIM ga nisbatan 85.9% ni ko'rsatgan. Bu hol juda yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Bu muddatda eng baland ko'rsatkich Gretsiya YaIM ga nisbatan 160.5% ko'rsatkichni, ikkinchi o'rinda Italiya YaIM ganisbatan 130.3% ko'rsatkichni ko'rsatgan. Bu hol Yevropa Ittifoqi shartnomasiga zid ko'rsatkichdir. Aynan, Gretsiya defolt holatiga juda yaqin kelib qoldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu holatlar yuzasidan quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- Yevropa Ittifoqi mamlakatlari chuqur qarz inqiroziga botib bo'ldi;
- Mamlakatlar miqyosida aholi jon boshiga tushadigan qarz miqdori juda baland;
- Yevropadagi yagona valuta ko'p mamlakatlar qarz inqirozini boshqasi bilan bog'lovchi asosiy vosita bo'lib qolmoqda;

- Yevropa Ittifoqi tarqalishi ehtimolini keltirib chiqaruvchi faktorlar juda ko'paymoqda va bu oqibatlar iqtisodiyotning salbiy tarafga ildamlashidan darak bermoqda;

- Bu qarzlar nafaqat Yevropa, balki butun dunyo iqtisodchilarini xavotirga solib qo'ymoqda.

Bunday muammolarni xal qilish uchun iqtisodchi olimlar turli chora tadbirlarni taklif qilishmoqda. Bunday taklif va choralar natijasi haqida esa qarshi fikrlar ham paydo bo'lmoqda. Qarz inqirozini bartaraf etish faqatgina qarzni qarz bilan yopish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Agarda qarzni qarz bilan qoplash davom etadigan bo'lsa, qarz ko'paysa ko'payadiki lekin kamaymaydi. Davlatlar moliyaviy-iqtisodiy sohasida kuchli hamda tubdan o'rganilgan, amaliyotda sinalgan reformalarni o'tkazish, mamlakatlar valutasini, budjetini, soliq sohasini erkinlashtirish, shu bilan birga ishlab chiqarish sohasini ham rivojlantirish lozim. Shundagina davlat qarzini jilovlab, yetarli darajada boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston»,2008.
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013y.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Soliqqa oid qonun hujjatlaridagi yangiliklar. – Toshkent: “NORMA”, 2010. – 512 b.

II.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2007 yil 7 noyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008- yil 28 - noyabr, PF-4058-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25- dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2014 -yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2099-sonli qaror .
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi 1675-sonli Qarori (2011 -yil 30 -dekabr).

III.Prezident asarlari va ma'ruzalari

8. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. - T: O'zbekiston, 2009
9. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayotimiz garovidir. – Toshkent: «O'zbekiston», 2007.56-b.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.-T.: O'zbekiston, 2010.-77 b

IV. Asosiy adabiyotlar

12. Abdullaeva Sh. “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari”. Darslik. T.: Iqtisod va moliya. 2005 y. 492 b.
13. Vahobov A., Jumaev N., Xoshimov E. “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari”. Monografiya, T.: Akademnashr, 2009 y. 144 b.
14. Vahobov A., Jumaev N., Burxonov U. “Xalqaro moliya munosabatlari”. Darslik. T.: Sharq. 2005 y. 300 b.
15. Vohobov A., Abdullaev Yo. “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma”. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 y. 194 b.
16. Jumaev N. “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi mohiyati, sabab-oqibatlar va O'zbekistonga ta'siri”. T.: “JIDU”, 2009 y, 56 b.
17. Fedyakina L.N. “Mejdunarodnie finansi”. B.m.: “Piter”, 2007 g. 560 s.
18. Jek I., Juk I., Kireeva E., Kravchenko V. “Mejdunarodnie finansi”. Ucheb. Posobie. Minsk: “BGEU”, 2007 g. 200 s.

19. Xaydarov M. “Xalkaro moliya bozorlari tarakkiyoti globallashuv jarayonida”. O’quv qo’llanma. T.: “Fan”, 2007 y. 159 b.
20. G’ulomov S., Dodobaev Yu. “Xalkaro moliyaviy munosabat asoslari”. Darslik. T.: “TDIU” 2005 y. 288 b.
21. Suetin A. “Mejdunarodnie valyutno-finansovie otnosheniya”. Uchebnik. M.: “KNORUS”, 2006 g. 360 s
22. Movsesyan A., Ognivtsev S. “Mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya”. Uchebnik. M.: “INFRA-M”, 2005 g. 312 s.
23. Moiseev S. “Mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya”. M.: “INFRA-M”, 2007. 573 s
24. Krasavinoy L. “Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnosheniya”. Uchebnik. 2-e izd. pererab i dop. M.: “Finansi i statistika”, 2005 g. 608 s.
25. Jumaev N., Kudaybergenov J. “Mejdunarodnie finansovie otnosheniya. Valyutniy kurs i puti ix regulirovaniya”. Uchebnoe posobie. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007 g. 132 s
26. Cherkasov E. “Mejdunarodnie investitsii”. Uchebnoe praktich. posobie. M.: “Delo”, 2007 g. 160 s.
27. Shchebarova N. “Mejdunarodnie valyutno-finansovie otnosheniya”. Uchebnoe posobie. M.: “Flinta”, 2007 g. 224 s.
28. Брюммерхофф Д. Теория государственных финансов. Пер. 7-го немецкого издания. – Владикавказ: «Пионер-Пресс», 2001. – 480 с.
29. Финансы: учебник для вузов / Под ред. проф. Л.А.Дробозиной. – М.: «ЮНИТИ», 2000. – 527 с.

V.Davriy nashrlar, statistik hisobotlar va to’plamlar

30. Yevropa ittifoqi statistika boshqarmasi, „Eurostat” davriy hisobotlari va statistik ma’lumotlari.
31. „Економист” jurnali 2013-yil sonlari.

32. „Standart and Poors” xalqaro reyting agentligi ma’lumotlari berilgan
„Nyu-York Times” gazetasi ma’lumotlari.

VI. Internet saytlar

- <http://www.worldbank.org>
- <http://www.mfa.uz>
- <http://www.ziynet.uz>
- <http://www.gov.uz>
- <http://www.imf.org>
- <http://www.adb.org>
- <http://www.ebrd.org>
- <http://www.isdb.org>
- <http://www.gov.ru>
- [http:// www.globaleconomiccrisis.com](http://www.globaleconomiccrisis.com)
- <http://www.federalreserve.gov/>
- <http://www.unctad.org>
- <http://www.eurostat.com>
- <http://www.bloomberg.com>
- <http://www.rieters.com>